

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Magistratura bo‘limi

Qo‘lyozma huquqida

UDK:

SHARIPOVA MAFTUNA JAMSHID QIZI

**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA «QO‘Y» LUG‘AVIY-MA’NOVIY
GURUHI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING LEKSIK-
SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

mavzusidagi

Mutaxassislik: 5A 120 102 – Lingvistika (o‘zbek tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori

B.M. Jo‘rayeva

Buxoro – 2020

Mazkur tadqiqot ishi Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Imiy rahbar

f.f.d. Jo'rayeva B.M.

Kafedra mudiri

f.f.n., dotsent Ahmedov A.R.

Magistratura bo'lim boshlig'i

f.-m.f.f. (PhD) To'rayev A.A

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA «QO‘Y» LUG‘AVIY-MA’NOVIY GURUHI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar. Maqol, lug‘aviy-ma’noviy guruh, darajalanish, “Devonu lug‘otit turk”, qo‘y, leksik qatlam, semantic qatlam, variantlilik, sinonimiya, ziddlik, ko‘p ma’nolilik, metafora, metonimiya.

Tadqiqot obyekti. O‘zbek xalq maqollari lug‘atlari, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari, Shotursun Shomaqsudov, Shuhrat Shorahmedov, Hamdam Berdiyev, Bibish Jo‘rayeva, Zulxumor Xolmanova, Dildora Tosheva singari adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan tuzilgan lug‘at va tavsiflar, badiiy adabiyot namunalari.

Tadqiqot metodlari. Qiyosiy-tipologik, psixologik, badiiy-tahliliy, tavsifiy metod va usullaridan foydalanildi.

Ishning maqsadi. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va ushbu ishlarda maqollar tarkibida mavjud bo‘lgan turli ma’no qirralari o‘rganilgan; maqollarda ko‘p ma’nolilik, sinonimiya, variantlilik hodisalari va **hayvon nomlari** ishtirok etgan maqollarning lingvokulturologik jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, ammo “qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining tadqiqi, ularning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilmagan. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish dissertatsiya ishi uchun asosiy maqsad sifatida belgilandi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi. O‘zbek tilshunosligida ilk marta “qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhida shakllangan xalq maqollari alohida tadqiq obyekti sifatida olindi. Ularning leksik-semantik jihatlari o‘rganildi.

Amaliy ahamiyatiga tatbiqi. Tadqiqotning ilmiy xulosalari “qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarini har tomonlama o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Maqollarning ma’naviy xususiyatlariga oid nazariy fikrlar o‘zbek tilshunosligida uslubiyat, til va badiiy mahorat masalalarini tadqiq etish doirasini chuqurlashtiradi. Tadqiqot uchun to‘plangan til materiallari o‘quv qo‘llanmalari tuzishga xizmat qilishi mumkin. Ishdan oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining “Frazzeologiya” bo‘limi uchun, “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” fanining “Maqollar” qismi uchun, shuningdek, “Sotsiolingvistika” fani uchun material sifatida foydalansa bo‘ladi. To‘plangan faktik materiallar esa tuzilajak ko‘p jildli o‘zbek xalq maqollari izohli lug‘ati uchun qo‘l keladi.

Магистерская диссертация на тему
ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АРТИКЛЕЙ,
СФОРМИРОВАННЫХ НА ОСНОВЕ ЛЕКСИКО-
СЕМАНТИЧЕСКОЙ ГРУППЫ “ОВЦЫ” В УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКОЗНАНИИ

А Н Н О Т А Ц И Я

Ключевые слова: пословица, градация, процессы связанные с овцами, объяснение, сравнение, баран, вариант, синоним, антоним, полисемия, “Devonu lug‘otit turk”.

Актуальность темы. Как подтверждает наш Президент: "невозможно представить духовность каждого народа или нации отдельно от ее истории, обычаев и традиций, жизненных ценностей". Среди национальных ценностей особое место занимают также народные пословицы. В узбекском языкознании не было уделено особого внимания семантическим и стилистическим свойствам народных пословиц. Это обуславливает актуальность темы диссертации.

Цель диссертации. Проведен анализ термина "овца", лексических и духовно-групповых особенностей пословиц узбекского языка. В статье рассматривается ряд единств, относящихся к лингвистическим и духовным группам слова "овца" произведения "Девону луготит Тюрк". Описываются и анализируются процессы, связанные с животным словом "овца".

Проблемы диссертации. Определить место пословиц среди паремий; тематическую группировку пословиц; анализ соотношения формы и значения народных пословиц; выявление стилистических свойств узбекских пословиц.

Объект исследования. Узбекские народные пословицы, толковый словарь, словари антонимов и синонимов пословиц.

Методология и методы исследования. В своей работе в качестве методологической основы опирался на философские законы и труды президента. Методы исследования: описательный, системно-структурный, компонентный анализ, сравнительный.

Научная новизна исследования: впервые в узбекском языкознании определено место пословиц в паремиологической системе и проведен их лингвистический анализ; проанализированы омонимические отношения национальных пословиц синонимические, антонимические; описаны стилистические возможности лексем части пословиц.

Практическая ценность и внедрение результатов научных исследований. Результаты исследования могут быть использованы для создания учебников и учебных пособий по этнолингвистике, для проведения специальных курсов и семинаров по национальным ценностям, обычаям для студентов историко-филологических факультетов.

Структура магистерской диссертации. Работа состоит из введения, трех глав и заключения, списка использованной литературы.

Основные результаты выполненной работы. Основное содержание работы отражено в 3 диссертациях в республиканских научных сборниках.

Краткое обобщенное выражение вывода и предложения. Системное изучение пословиц и их семантических особенностей в узбекском языкознании имеет большое научное и практическое значение.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF ARTICLES FORMED ON THE BASIS OF THE LEXICAL-SPIRITUAL GROUP “SHEEP” IN UZBEK LINGUISTICS

Master's thesis on the topic

ANNOTATION

Keywords: proverb, lexical spiritual group, graduation, livestock, sheep, lexical layer, semantic layer, lexical layer, variant, “Devonu lug‘otit turk”, antonym, synonym, palicemy.

The urgency of the theme. As our President confirms: “It is impossible to present spirituality of each people or the nation separately from its history, customs and traditions, vital values”. Among national values national proverbs also possess the special place. In the Uzbek linguistics it has not been paid special attention on semantic and stylistic properties of national proverbs. It causes an urgency of a theme of the dissertation.

The purpose of the dissertation. The analysis of the term “Sheep”, lexical and sipiritual group features of proverbs of the Uzbek language. The article deals with a number of unities concerning to lingvistic and spiritual groups of the word “sheep” of the “Devonu lug‘otit turk” work. The processes related to the word “sheep” animal are descriled and analyzed.

The problems of the Dissertation. To define a place of proverbs among parems; thematic grouping of proverbs; the analysis of the relation of the form and value of national proverbs; revealing of stylistic properties of the Uzbek proverbs.

The Object of the research. The Uzbek national proverbs, an explanatory dictionary, dictionaries of antonyms and synonyms of proverbs.

The Methodology and research methods. In work as a methodological basis leant against philosophical laws and works of the President. Research methods: the descriptive, system-structural, componential analysis, comparative.

The Scientific novelty of the research: For the first time in the Uzbek linguistics the place of proverbs in paremiological to system is defined and their linguistic analysis is carried out; homonymic relations of national proverbs are analyzed synonymic, antonymic; stylistic possibilities of lexemes of a part proverbs are described.

The Practical value and introduction of results of research. Results of research can be used for creation of textbooks and manuals on ethno linguistics, for carrying out of special courses and seminars on national values, customs for students of historical and philological faculties.

The Structure of the magistracy dissertation. The Work consists of introduction, three chapters, and conclusion, the list of the used literature.

The basic results of the performed work. The basic maintenance of work is reflected in 3 theses in republican scientific collections.

The short generalized expression of a conclusion and offers. System studying of proverbs and their semantic features in the Uzbek linguistics has the big scientific and practical value.

Kirish.....	3
I bob. Tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili...	7
1.1. Jahon tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili.....	7
1.2. Turkiy tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili	11
1.2.1.“Devonu lug‘otit turk”da “qo‘y” LMGiga aloqador birliklar tahlili.....	13
1.3. O‘zbek tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili	17
I bob yuzasidan xulosa.....	21
II bob. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining leksik xususiyatlari.....	21
2.1. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida metafora	22
2.2. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida metonimiya.	29
2.3. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida variantlilik..	32
II bob yuzasidan xulosa.....	43
III bob. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari.....	45
3.1. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida ko‘p ma’nolilik	
3.2.“Qo‘y”LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida..45 zidlik....	48
3.3. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida sinonimlik..	56
III bob yuzasidan xulosa.....	62
Xulosa.....	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	66

Ilovalar.....	
69	

KIRISH

Mavzuning asoslanganligi va dolzarbligi. Mamlakatimiz istiqloлга erishgach o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Istiqloл tufayli milliy qadriyatlar tiklandi, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to'ldi. O'zbek tili sohasida ham milliy ruh va imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida, ayniqsa, tilga izchil yondashish va vazifaviy tahlil yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilandi. Til hodisalari esa til tizimidagi o'rni, roli, nutqda qo'llanishi kabi xususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga nasiba berganham shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq. Xalq rozi bo'lsa ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi"¹. Shunday ekan, biz xalqimizning o'zligini: urf-odati, bag'rikengligi va mehmondo'stligini butun dunyoga tarannum etishimiz, milliylikimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz ifoda topgan ona tilimizni o'rganishimiz, chuqur va izchil tadqiq etishimiz shart.

Millatimizning butun hayotini qamrab olgan ulkan merosi, shubhasiz, xalq og'zaki ijodi namunalaridir. Xalq og'zaki ijodining salmoqli qismi esa maqollardan tashkil topgan. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan o'zbek xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosati va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy

¹ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016, 18- б.

tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaralitib turgan, eskilarining – jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Maqollar mavzu jihatidan xilma-xil bo'lib, olimlar ularni mavzusiga, tashiydigan ma'nosiga ko'ra tadqiq etgan va kitob holida nashr ettirgan.

Maqollar xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatdan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan shu jihati bilan ahamiyatlidir.

Ishning maqsadi. O'zbek tilshunosligida xalq maqollari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va ushbu ishlarda maqollar tarkibida mavjud bo'lgan turli ma'no qirralari o'rganilgan; maqollarda ko'p ma'nolilik, sinonimiya, variantlilik hodisalari va **hayvon nomlari** ishtirok etgan maqollarning lingvokulturologik jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, ammo "qo'y" LMGi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining tadqiqi, ularning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilmagan. Ushbu xususiyatlarni o'rganish malakaviy bitiruv ishi uchun asosiy maqsad sifatida belgilandi.

Dissertatsiyaning vazifalari. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim deb topildi:

– zoonimlar tadqiqiga oid jahon, turkiy hamda o‘zbek tilshunosligida olib borilgan ilmiy izlanishlarni o‘rganish va tahlil qilish;

– zoonim komponentli maqollar ishtirok etgan matnlarni to‘plash;

– “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollarini yig‘ish;

– “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollarining leksik (o‘z va o‘zlashma qatlam, iste’mol doirasi chegaralangan leksika, variantlilik jihatlariga ko‘ra) xususiyatlarini tahlil qilish;

– “qo‘y” LMGi ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollarining semantik (ko‘p ma’nolilik, omonimlik, sinonimlik jihatiga ko‘ra) xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish;

– “qo‘y” LMGi ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollarining ijtimoiy shartlangan ma’nolarini aniqlash va izohlash.

Tadqiqot obyekti. Dissertatsiya ishi uchun obyekt sifatida o‘zbek xalq maqollari lug‘atlari, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari va Shotursun Shomaqsudov, Shuhrat Shorahmedov, Hamdam Berdiyev, Bibish Jo‘rayeva, Zulxumor Xolmanova, Dildora Tosheva singari adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan tuzilgan lug‘at va tavsiflar, shuningdek, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanildi.

Tadqiqot predmeti. O‘zbek tilshunosligida «qo‘y» LMGi asosida shakllangan maqollarning leksik xususiyatlari: metafora, metonimiya, variantlilik hodisalari hamda semantik xususiyatlari: sinonimlik, ko‘p ma’nolilik, zidlik munosabatlari tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyada o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba “qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhi asosida shakllangan xalq maqollari alohida tadqiq obyekti sifatida olindi va uning leksik jihatlarini o‘rganildi. Tahlil jaroyonida ushbu maqollarning semantik qirralari izohlandi.

Ishning amaliy ahamiyatiga tatbiqi. Tadqiqotning ilmiy xulosalari “qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarini har tomonlama o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Maqollarning ma’noviy xususiyatlariga oid nazariy fikrlar o‘zbek tilshunosligida uslubiyat, til va badiiy

mahorat masalalarini tadqiq etish doirasini chuqurlashtiradi. Tadqiqot uchun to'plangan til materiallari o'quv qo'llanmalari tuzishga xizmat qilishi mumkin. Ishdan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining "Frazzeologiya" bo'limi uchun, "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" fanining "Maqollar" qismi uchun, shuningdek, "Sotsiolingvistika" fani uchun material sifatida foydalansa bo'ladi. To'plangan faktik materiallar esa tuzilajak ko'p jildli o'zbek xalq maqollari izohli lug'ati uchun qo'l keladi.

Tadqiqotning metodi. O'zbek xalq maqollarini ma'noviy jihatdan o'rganishda dialektikaning shakl va mazmun birligi, miqdor va sifat o'zgarishlari haqidagi ta'limoti metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Misollar tahlilida tavsifiy, miqdoriy, sistemaviy-struktur, komponent tahlil, shuningdek, matniy va qiyosiy metodlaridan ham foydalanib ish ko'rildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Ish "Kirish", 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 80 betni tashkil etadi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Tadqiqotning asosiy mazmuni respublika va xalqaro miqyosdagi to'plamlarda o'zbek, rus, ingliz tillarida maqola va tezis shaklida chop etilgan.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. O'zbek tilshunosligida "qo'y" LMGi asosida shakllangan xakkq maqollarining leksik hamda semantik jihatdan to'laqonli yoritish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

I BOB TILSHUNOSLIKDA ZONIMLAR TADQIQIGA OID BAJARILGAN ILMIY ISHLAR TAHLILI

1.1. Jahon tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili

Zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lingvistik xususiyatlari D.X.Bazarova², H.A.Saidova³, J.Metyakubov⁴, B.B.Abdushukurov⁵, N.R.Nishonova⁶, B.Zaripov⁷, B.M.Jo‘rayeva⁸, D.M.Yo‘ldosheva⁹, G.E.Hakimova¹⁰, A.J.Omonturdiyev¹¹, Sh.Noraliyeva¹², D.A.Tosheva¹³ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida turkiy yozma manbalardagi zoonimlar, zoologik atamalarning shakllanish bosqichlari, maqollarning til tizimidagi o‘rni, semantik-uslubiy xususiyatlari, zoonimlarning ma‘no ko‘chirlari, badiiy san‘at turlarini hosil qilishdagi, inson xarakterini ifodalashdagi ahamiyati, “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili, o‘zbek folklorida bo‘ri obrazining mifologik talqini, shaxs tavsifida hayvon nomlaridan foydalanish, badiiy matnlarning antroposentrik talqini, o‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar, zoonim komponentli¹⁴

² Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 222.

³ Саидова Ҳ.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Бухоро, 1995. – 178 б.

⁴ Мэтякубов Дж. Характеристика человека зоонимами в разносистемных языках: на материале английского и узбекского языков: Дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1996. – 173 с.

⁵ Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Т., 1998. – 207 б.

⁶ Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Тошкент, 2000. – 120 б.

⁷ Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (А.Навоий асарлари асосида): Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2002. – 128 б.

⁸ Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2007. – 66 б.

⁹ Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар. Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2007. – 124б.

¹⁰ Ҳакимова Г.Э. Зооним компонентли фразеологик бирликларнинг структуравий ва семантик хусусиятлари (инглиз тили материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2008. – 145 б.

¹¹ Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 25 б.

¹² Норалиева Ш. Ўзбек фольклорида бўри образининг мифологик асослари ва бадий талқини. – Тошкент: Ал-фаба-сервис, 2013. – Б. 99.

¹³ Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент:

birliklarning leksik, semantik hamda strukturaviy xususiyatiga doir masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotning “Zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili” deb nomlangan birinchi bobida zoonimlar, umuman, zoonim komponentli maqol va birliklar tadqiqiga oid ishlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan bo‘lib, zoonimlarning o‘rganilish darajasi jahontilshunosligida, turkiy tilshunoslikda va o‘zbek tilshunosligida qay ko‘lamda tadqiq etilganligi qiyosiy tarzda asoslangan.

Zoonimlarni, zoonim komponentli maqollarni o‘rganish turli xalqlarning madaniyati, urf-odati, tili hamda lisoniy xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi. Jahon tilshunosligida zoonim tadqiqiga oid ishlar salmoqli o‘rin egallaydi. Rus tilshunosi I.Y.Vinakurova o‘z tadqiqotida arxeologik ma’lumotlarga va ba’zi keyingi etnografik dalillarga asoslanib, vepsiyaliklar e’tiqodiy jihatdan sig‘inadigan hayvonlarni aniqlaydi. Bular jumlasiga quyon va bo‘ri (shubhali), o‘rdak, oqqush, ayiq va ot (juda ishonchli)¹⁵ kabilarni kiritish mumkin.

Etnik guruhlarining, ya’ni xalqlarning marosim madaniyati to‘g‘risidagi materiallarni yig‘masdan hayvonlarning mifologik ramziyligini aniqlash birmuncha qiyin masala. Shu tufayli olimlar xalq marosimlarida hayvonlarning rolini o‘rganib chiqadi va ularning turlicha ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, insonlar mo‘miyoga (to‘liq hayvonga) va tananing organlari, qismlariga (qisman hayvonga) sig‘inish orqali sehrli hodisalar ro‘y berishiga ishonishgan. Vinokurova mifologik hayvonlarni maxsus guruhlariga ajratgan holda tahlil qiladi.

Tadqiqotimiz muammolari uchun vepsiyaliklarning iqtisodiy faoliyatiga, xususan, ovchilik, baliqchilik va chorvachilikka bag‘ishlangan asarlar ham ahamiyatli. Ular orasida, birinchi navbatda, XIX asrning ikkinchi yarmida chop etilgan maqolalar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, E.Leverovskiy, P.Minorskiy, G.I.Kulikovskiy va boshqalarning asarlari ahamiyatli.

¹⁵Винокурова И. Ю. Животные в традиционном мировоззрении вепсов (опы реконструкции). Санкт-Петербург, 2007.

Hayvonlar dunyosi haqidagi xalq fikrlarini o'rganish uchun eng muhim tilshunoslik lug'ati bu – Vepsiya lug'ati. Unda nafaqat Vepsiya lahjalari va lahjalardagi hayvonlarning nomlari, balki xalq zoologik kodlaridan foydalanadigan o'simlik, astronomik, tibbiyot, qurilish, maishiy sohaga oid izlanishlar mavjud. Lug'at terminologiyadan tashqari, hayvonot dunyosining turlarini eslatib turadigan ko'pgina folklor materiallarini – e'tiqodlar, belgilar, maqollar, iboralarni o'z ichiga oladi

I.Y.Vinakurova ishining muhim jihati Veps an'anaviy dunyoqarashida diniy nuqtayi nazardan e'tiqod qilinadigan hayvonlarga oid holatlarga e'tibor qaratganligidadir. I.Y.Vinakurova tadqiqot ishiga qadar dintushunchasining mazmuni, shu jumladan – hayvonlarga nisbatan bu tushunchasining qo'llanishi E.A.Kreinovich, E.S.Novik , E.V.Antonova, S.P.Nesterov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Hayvonlarning surati yoki haykaliga emas, balki o'ziga sig'inish–totemizmda qabila jamiyatining e'tiqodi va marosimlari majmui sifatida belgilanganligi alohida e'tirof etilgan.

A.P. Kosmenko mifologik tasavvurlarni o'rganishda xalq tasviriy san'atining o'zni kattaligi, u boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni takrorlashi mumkinligi, lekin bu ishonchli va muhim ma'lumot beruvchi hujjat ekanligini ta'kidlaydi.

I.I. Mullonen¹⁶ Vepsiya toponimlari va antroponimlarining asosini hayvonlar tashkil qilishiga e'tibor qaratadi.

Lafta ma'no jihatdan arab tiliga yaqin bo'lgan rus tilidagi zoonim komponentli maqollarning kompleks tahlilini, ularning ma'naviy jihatlarini lingvokulturologik tomondan tavsif va tahlil qiladi. Tadqiqotda quyidagi an'ana kuzatiladi. Tadqiqotda zoonim komponentli rus maqollarini ma'naviy guruhlariga ajratadi va milliy-madaniy o'ziga xosliklarini ochib beradi.

¹⁶ Муллонен И.И. 1) О вепской антропонимии (опыт топонимической реконструкции). // Советское финно-угроведение. Таллинн, 1988, № 4. –С.271–282; 2) О “святых” топонимах и некоторых следах древних верований в вепской топонимии. // Родные сердцу имена. Ономастика Карелии. Петрозаводск, 1993. –С. 4–12; 3) Очерки вепской топонимии. –СПб., 1994 и др.

Zolim kishilar bu –yirtqich hayvonlar (masalan, bo‘ri, ayiq, mushuk), baliqlar (pike), hasharot (pashsha)ga qiyoslanadi. Kambag‘al va ishlaydigan odamlar yirtqich bo‘lmagan baliq – ruffga yoki uy hayvonlari –ot, itga o‘xshatiladi. Ko‘pincha himoyasiz insonlar– qo‘ylar, sigirlar, buzoqlar timsolida beriladi.

Eng keng tarqalgan hayvon nomlari – bo‘rilar, otlar va qo‘ylar kabi hayvon nomlari, bu nafaqat ularning uydagi muhim funksiyalariga, balki ham folklorda, ham badiiy adabiyotdagi ahamiyatga bog‘liqdir. Rus xalqi bo‘rini xavfli yirtqich hayvon deb biladi, ularning milliy udumiga ko‘ra bo‘ri, echki, qo‘y va buzoqlarni o‘g‘iraydigan hayvon sifatida ham tanilgan: Bo‘ri qo‘ylarga mehribon, uni boqmang; Bo‘ri echkilarni ziyofatga chaqiradi, lekin echki u yerga sovg‘a uchun bormaydi. Yovvoyi hayvonlar orasida tulki va ayiq – rus ertaklarida bo‘rining doimiy hamrohlaridir. Ushbu kontrast natijasida, bo‘ri tulkiga qaraganda xavfliroq, ammo ayiqdan kamroq xavfli ekanligi ayon bo‘ladi: u tulkiga o‘xshaydi va bo‘ri kabi hidlanadi; U bo‘ridan yugurdi, lekin ayiqqa hujum qiladi. Odatda, bo‘riga qarshi bo‘lgan uy hayvoni –qo‘y. Qo‘y yonida cho‘pon bo‘lsa bo‘riga yomon; Qo‘yning ko‘z yoshlari bo‘ri uchun to‘kiladi; Qo‘y va bo‘ri birga omon yasholmas.

Shunday qilib, rus milliy rasmidagi bo‘ri – bu mashq qilishga qodir bo‘lmagan, chorva mollarini yo‘q qiladigan, ammo shu bilan birga ayyorligi va zukkoligi tufayli o‘z qilmishi uchun jazodan qochib qutuladigan hayvon.

Makiyenkonning “V glub pogovorki” deb nomlangan tadqiqot ishida zoonim komponentli maqollarda hayvon nomlari ko‘proq kishilarning salbiy xarakter-xususiyatini o‘rganishga xoslanganligini ta’kidlagan .

Ch.Inkuy o‘zining doktorlik ishida zoonimlarning semantic taraqqiyotini tahlil qiladi. Jumladan, shaxs tavsifida 127 ta hayvon nomi qo‘llanilib, ulardan 52 tasi yovvoyi, 75 tasi xonaki, 15 tasi hasharot, 11 tasi umumiy hayvon nomlarini ifodolovchi so‘zlar, 10 tasi baliqlar, 7 tasi ham suvda, ham quruqlikda yashovchi jonivorlar, 5 tasi bir hujayrali hayvonlar ekanligini aniqlagan.

1.2. Turkiy tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili

M.V.Porxomovskiyning tadqiqot ishida turk tilidagi maqollar morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilingan.

Maqollarda ishtirok etgan fe'ning vazifa shakllariga bag'ishlangan qismning oxirgi qismida turk paremlarida fe'ning ma'lum bir shaklini ishlatish chastotasi to'g'risida statistik ma'lumotlar keltirilgan. Ularning 75% ga yaqini fe'lga egaligi isbotlangan. Olimning qayd etishicha, tahlilga ko'ra, turk maqollari mavzu xilma-xilligi nuqtayi nazaridan jahon tilshunosligida yetakchi o'rinni egallaydi (150dan ortiq).

N.A.Samoylovich¹⁷ oltoy ayollari hayvon nomlaridan aytilishi mumkin bo'lmagan 42 ta so'zni keltiradi. Masalan, qozoq, qirg'iz ayollari erlari va ularning aka-ukalari otlariga qo'shib aytiladigan. *Bo'ri, qo'y, qo'ziso'zlarini aytmaslik natijasi o'laroq, ular nutqidan quyidagi gaplarni yozib olgan: Oquvchi (daryo)ning narigi tomonida ko'karadigan (qamish)ning tagida ulovchi (bo'ri)ning tagida ma'rovchi qo'yning bola(qo'zi)sini yeb yotibdi.*

N.A.Baskakov¹⁸ ham oltoylik ayol suv (daryo), tut (daraxt), bo'ri, qo'y so'zlarini aynan keltirmay, ularning ma'nodoshlarini qo'llagan: *Oquvchi (daryo)ning narigi yog'ida turuvchi (tut)ning ostida uluvchi (bo'ri) ma'rovchi (qo'y) yeb yotibdi, degan ibora bilan xabar berilganligini aniqlagan.*

E.A.Agayan¹⁹ arman qishloqlarida *ilon* so'zi o'rnida *arqon, kanat* so'zlari ishlatilganligini yozadi.

A.N.Trubachev²⁰ Yevropa ovchilari, baliqchi va dehqonlari ov mavsumida qo'rqinchli va zararli hayvonlarning nomini aytmaslikka harakat qiladilar,— deb yozadi va muallif o'rmon hayvonlari (*ayiq, bo'ri* kabi)ni Shvetsiya, Finlandiya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda erkalatib,

¹⁷Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков // Язык и литература. — Л., 1929.— Т.III. — С. — 124-125.

¹⁸Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. — Баку, 1975.— №2.—С.17.

¹⁹Агаян А.Э. Введение в языкознание.— Ереван: Ун-т.,1960. —271 с.

²⁰Трубачев О.Н. Из истории табуистических названий // Вопросы славянского языкознания.— М.: Наука, 1958. — вып.3. — С.12-15.

xushomadgo‘yli, kinoyali laqablar bilan atashlari rasm bo‘lib qolganligini qayd qiladi.

N.G.Mixaylovskaya²¹ Xanti-Mansiy, Nanay, Chukot kabi uzoq Sharq xalqlari etnografiyasida ko‘pgina til vositalarining tabulashtirilgan shaklda saqlanib qolganligini, bu xalqlar *ayiq*, *bo‘ri* kabi yirtqich hayvonlarni kishilarga yaxshilik keltiruvchi so‘z va iboralar bilan ataganliklarini, ubilio‘rnida **низвели, медведь** o‘rnida **добрый, хозяин леса** (o‘rmon egasi), **таёжный гигант, таёжный великан** (tayga kattakoni), **лохматый** (paxmoq) kabi evfimizmlar bilan yoki folklordagi yomonlik keltiruvchi **посамахи, тулмах** kabi ruh nomlari o‘rnida **хитрый, злой, вор** so‘zlarini; *ayiq orqasidan ketdi, ayiq ovlab ketdi* o‘rnida **они пошли по следу посамахи** frazeologik-evfimik iboralarni qo‘llaganlarini yozgan. Shuningdek, N.G.Mixaylovskaya yuqoridagi xalqlar o‘zlarini tabiat, o‘simlik, hayvonot olamidan ajrata olmaganliklarini, masalan, ayiqlar ham odam kabi yashaydi, bolalaydi, o‘sadi, o‘ladi; ularning ham yaxshi-yomoni bor, deb tushunganliklarini qayd etadi.

1.2.1 . “Devonu lug‘otit turk”da “qo‘y” LMGiga aloqador birliklar tahlili

XI asrda yashab ijod etgan etnograf, filolog, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg‘ariyning bahosiga jahon xazinalari kamlik qiluvchi²² “Devonu lug‘otit turk” asari –butun turkiy xalqlarning nodir manbasi. S.Rustamora ta’kidlaganidek: “Devonu lug‘otit turk”da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, urug‘, qabilalarning nomlari, faxriy unvonlari, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, yovvoyi va **uy hayvonlari**, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari, o‘simliklarning nomlari, astrologik atamalar, xalq taqvimi, oy, hafta, kunlarning nomlari, jo‘g‘rofiy atamalar, shahrlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik

²¹ Михайловская Н.Г. Русская речь. – М.: Наука, 1985. – 172 с.

²² Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабаева У. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 53.

atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma'muriy vazifalarga oid atamalar bor²³. Kitob o'zida shu qadar ko'plab rang-barang ma'lumotlarni mujassam etganki, ularni tahlil va tavsif qilish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi²⁴. Chunonchi, uy hayvonlari turkiy xalqlar turmushida alohida o'rin egallaydi.

Qo'y – go'sht, jun, sut va teri olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavshqaytaruvchi uy hayvoni²⁵. Qo'ylar yovvoyi qo'y – *muflondan* kelib chiqqan. Qo'y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan²⁶.

Qo'y asrlar mobaynida inson hayotida muhim oziq-ovqat mahsuloti (go'shtli, yog'i), kiyim-kechak (teri, juni) sifatida katta rol o'ynagan²⁷.

“Devonu lug'otit turk” asaridagi “qo'y” LMGi bilan bog'liq birliklarni quyidagicha izohlash mumkin:

Qo'y saqlanadigan joy nomlari:

Ag'il – og'il, **qo'y og'ilxonasi**; o'g'uzlar qo'yning qiyini ag'il deydilar. Bir-biriga yaqin turgani natijasida kelib chiqqan. Chunonchi, yomg'irni ham, bulutni ham sama deb aytilgani kabi (I,56). Ikki xil tushunchaning aynan bir xil nomlanishi natijasida, o'zbek va uyg'ur tillari orasida farqlanish ko'rsatilgan.

Qasi – **qo'y** va boshqalarni sovuqdan saqlash uchun yog'ochdan qilingan **og'ilxona**. Boshqasi ham shunday. Qasi badim –og'ilxona soldim (III, 244).

Yoshiga ko'ra darajalanishi:

Devondagi qo'y nomlari ma'lum bir leksik paradigmalarda o'zaro mazmun o'xshashliklari va farqlari asosida muayyan qatorlarga, guruhlarga birlashishi ham mumkin. Masalan, ularning yoshini ifoda etadigan darajalanish qatori ham shular jumlasiga kiradi: balder qozi – ertagi qo'zi (I,425). Baqlan – baqlan qozi – yosh va semiz qo'zi (I,415). Toqli – to'qli, olti oylik qo'chqor,

²³Рустамора С. Махмуд Қошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, № 2, 1996. – Б. 156. 124-125.

²⁴ Абдулаҳатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабаева У. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 53.4.

²⁵O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 464.

²⁶Zoologiya.7-sinf: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik/O. Mavlonov. – Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 208. 198.

²⁷Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2005. – Б. 528.129.

qo‘zi (I,405). Tishak – ikki yoshli qo‘y (I,368). O‘TILda **g‘o‘non** – ikki yashar ayg‘ir yoki qo‘chqor tarzida izohlangan²⁸. Bundan tashqari, **do‘nan** – ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygan qo‘y yoki echki²⁹ tarzida izohlangan. Demak, turkiy xalqlar ikki yoshli qo‘yni turli nomlar bilan atagan. Irk – qo‘y, to‘rt yoshga qadam qo‘ygan qo‘y (I,78). Man: man jashlig‘ koj– to‘rt yashar qo‘y. Bu so‘z qo‘ydan boshqaga qo‘llanmaydi (III,172).

A‘zolari va mahsuloti bilan bog‘liq nomlar tasnifi.

1) yungi va u bilan bog‘liq mahsulotlar nomi:

a) ot so‘z turkumi: Qars – tuya yoki **qo‘y yungidan** qilingan kiyim (I,333).

Jo‘n – yung, tuya yoki **qo‘yning yungi** (III,373).

b) fe‘l so‘z turkumi: Utuldi – yungi kuydirildi, utildi. Koj bashi o‘to‘ldi – **qo‘y** kallasining **yungi** utib olindi. Boshqasida ham qo‘llanadi (I,201). Junlatti – yungini qirtirdi, oldirdi, kestirdi. Ol kojug‘ junlatti– u **qo‘yning yungini** kestirdi. Tuya uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. (junlatur, junlatmaq) (II,415). Junladi – yungini qirqdi. Ol kojun junladi – u **qo‘yining yungini** qirqdi. (junlar, junlamaq) (III,412). Qirqdi: ol kojun qirdi –**qo‘yning yungini** qirqdi. Boshqasi ham shunday. (qirqar, qirqmak) (III,428).

2) terisi va u bilan bog‘liq mahsulotlar nomi:

a) ot so‘z turkumi: ichmak – qo‘zi terisidan qilingan po‘stin (I,127). Qujqa –teri. Bu so‘z aslida teriga qo‘llansa ham, ba‘zan po‘stinga ham qo‘llanadi. Ol kojug‘ qujqaladi– u qo‘yning terisini qaynoq suvda tozaladi. Teri tukdan tozalandi va ochiq ko‘rindi (III,188).

b) fe‘l so‘z turkumi: jo‘zto‘rdi: ol anar koj jo‘zto‘rdi – u unga qo‘y terisini shildirdi. Boshqasi ham shunday (III,105). Sojushdi – shilib olishdi. Ol mana teri sojushdi – u menga qo‘y terisini shildirishga yordam berdi. Boshqasi ham shunday. Shuningdek, bu so‘z tuxum po‘chog‘ini, daraxt po‘stlog‘ini ajratishda ham qo‘llanadi. (sojushur, sojurmaq) (III,205). Sojuldi – shilindi. Koj

²⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 . – B. 464.

²⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 . – B. 464. 675.

terisi sojaldi – qo‘y terisi shilindi (III,207). Sojdi – er kojug‘ sojdi– odam qo‘y terisini shildi. Boshqasi ham shunday. (sojar, sojmaq) (III, 262).

3) a‘zosi bilan bog‘liq nomlar:

a) ot so‘z turkumi: karko‘k – qo‘yning qat-qat qorni ichidagi katakchalarga o‘xshash narsa (II,334). Qosh – har bir juft narsa. Shundan olinib, qaychiga qosh bichak deyiladi, juft pichoq demakdir (arg‘ucha). Maqolda shunday kelgan: qorqmish kishiga koj bashi qosh ko‘ro‘no‘r– qo‘rqqa odamga har qo‘yning boshi juft ko‘rinadi. Bu maqol har narsadan qo‘rqqa, hatto, u narsani xayol qilganda ham, har vaqt qo‘rqadigan kishiga nisbatan aytiladi (III,139).

b) fe‘l so‘z turkumi: meniladi: er meniladi – odam miyani yedi. Asli to‘g‘risi shudir. So‘ng bu so‘z miya uchun qo‘y so‘yish kerak degan ma‘nodadir. Bu qo‘yning eng qimmatli a‘zosidir. Birov hurmati uchun **qo‘y** so‘yilib, **miya** taqdim qilish eng buyuk hurmatdir. So‘ng bu so‘z o‘rnida yaxshi taomi bor har bir odam uchun ham ataladigan bo‘lgan (III,413). Eritti – ol kozi eritti – u **qo‘zini** axta qildi. (**moyagini** chiqirib oldi) (I,215). Bu jarayon erkak qo‘zilar ustida amalga oshiriladi. Mayin junli va yarim mayin junli qo‘ylar bahorda jun qirqimi oldidan, bir yoshligida bonitirovka qilinadi. Barra terisi uchun boqiladigan qo‘ylar 1-2 kunligida, po‘stinbop qo‘ylar esa 7-8 oyligida, dag‘al junli boshqa qo‘ylar (shu jumladan go‘shtdor-yog‘dor qo‘ylar) kuzda jun qirqimi oldidan bonitirovka qilinadi³⁰. Bu jarayon erkak qo‘zilar ustida amalga oshiriladi. Ular naslchilikka emas, balki mahsulot manbaiga xizmat qiladi. Cho‘jdi – cho‘zdi. Urug‘ut jip cho‘jdi – xotin ipni cho‘zdi. **Qo‘y ichagi**, arqon kabi tortib cho‘zish mumkin bo‘lgan har bir narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘z ham ikki jag‘ orasidagi j bilan aytiladi. (cho‘jar, cho‘jmak) (II,16). Cho‘jto‘rdi – cho‘zdirdi. Ol jipig‘ cho‘jto‘rdi– boshashgan arqanni torttirdi. Qo‘y ichagini artishga ham bu so‘z qo‘llanadi. (cho‘jto‘rur, cho‘jto‘rmak) (II,209).

4) qiyi (o‘g‘it):

³⁰Chorvachilik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 380.213.

a) ot soʻz turkumi: in – **qoʻy qiyi**; bu soʻzning jin shakli ham bor (I,84). Jin shaklining mavjudligini quyidagicha izohlash mumkin: qipchoq shevasida odatdagi yoʻrniga qorishiq *j* undoshi talaffuz etiladi: *jol joq, jorgek, joman, jil, jiladi* va b.(ad.-orf. Yoʻl, yoʻq, yoʻrgak, yomon, yil, yigʻladi). *Uzum* soʻzi (qadimda yuzum shaklida ishlatilgan boʻlsa kerak) boshida ham *j* aytiladi: *juzum*³¹. In soʻzining ham yin boʻlishi ehtimoldan holi emas. *Chalma* – *chalma*, **qoʻy**, tuya va boshqa mollar **qiyidan** kesib olib, qishda yoqish uchun quritiladigan tezak (I,407). Jin – tezak. Koj juni –**qoʻy qumalogʻi** (III,11). Moʻnoʻzlandi – shoxlandi, shox chiqardi. Qozi moʻnoʻzlandi – qoʻzi shox chiqardi. Boshqasi ham shunday. (moʻnoʻzlanur, moʻnoʻzlanmak) (III,415).

Xulosa qilib aytganda, ushbu nodir asarda “qoʻy” LMGi aksariyat ijobiy maʼnoda qoʻllangan. Qoʻy hayvonining yoshiga koʻra darajanishi, aʼzosi, mahsuloti, hayot kechirishi, koʻpayishi izohlangan. Asarni oʻrganish davomida XI asrda qoʻy hayvoni xalqimizning oʻtmishdagi hayotida, turmush tarzida qanday oʻrin tutganini kuzatdik. Xalqimizning boy tarixini har tomonlama oʻrganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Demak, “Devonu lugʻotit turk” asari oʻzbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manba. Uni oʻrganish, tadqiq qilish biz avlodlarning asosiy vazifamizdir.

1.3. Oʻzbek tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili

N.Ismatullayev³² oʻzbek tilidagi evfemizmlarning paydo boʻlish sabablari haqida gapirgach, ularni guruhlariga ajratgan holda tasniflaydi (masalan, zaharli hasharotlar nomi oʻrnida qoʻllanadigan evfemizmlar, yirtqich hayvonlar nomi oʻrnida qoʻllanadigan evfemizmlar, xotin-qizlar tilida ishlatiladigan evfemizmlar) va har bir sotsial qatlam nutqida qoʻllanadigan evfemizmlarning

³¹Mirzayev M. Oʻzbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. . – Toshkent: Fan, 1969. – B. 160.16.

³²Исматуллаев Н. Хозирги ўзбек тилида эвфемизмлар // ТошДПИ нинг «Илмий асарлар»и. – Т.: ТошДПИ, 1963. – Т.42; китоб I. –Б. 3-59.

muomaladagi ahamiyatini, lug‘at sostavini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib bergan.

D.X.Bazarova³³ o‘z tadqiqot ishida o‘zbek tilida mavjud qush nomlarini o‘rganib chiqqan. Asrlar mobaynidagi tashqi aloqalar natijasida o‘zbek tilida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarqush nomlarining variantlashuvi, dubletlar va sinonimlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lganligi ta’kidlangan. Tadqiqotda o‘zbek tilidagi qush nomlari tadqiqi asosida turkiy tillarga xos ornitonimlar tavsiflangan³⁴.

H.A.Saidova³⁵ ning ishida yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, qurt-qumusqa kabilarni atab keluvchi so‘zlar hayvon nomlarini tashkil etishini izohlab, hayvon nomlarini tadqiqot obyekti sifatida oladi. Ishda ellikta zoonim semantik jihatdan tahlil qilingan³⁶.

B.Abdushukurov³⁷ ning nomzodlik dissertatsiyasida XI-XIV asrlar oralig‘ida yaratilgan turkiy yozma manbalar matnida qo‘llangan zoonimlar leksik-semantik, funksional- semantic hamda struktur-grammatik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot turkiy lug‘at fondida mavjud zoonimlarning semantic guruhlarini aniqlashda ahamiyatlidir.

N.R.Nishonova³⁸ ning tadqiqot ishida o‘zbek tilida “hayvon” arxisemasi bilan umumlashgan leksemalar qamrab olingan, asosan, sut emizuvchi, umurtqali hayvonlarni ifodalovchi zoonimlar tahlil qilingani ta’kidlangan. Ishda har bir mikromaydonga mansub bo‘lgan hayvon nomlari farqli va o‘xshash

³³Базарова Д.Х. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. – Т.: Фан, 1978. – С. 222.

³⁴Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент: 2017, 14-б.

³⁵Саидова Х. Жонивор номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланиши. – Бухоро: Бухоро, 2005. – Б. 20.

³⁶Саидова Х.А. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Бухоро, 1995. – 178 б.

³⁷Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Т., 1998. – 207 б.

³⁸Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол.фанлари номзоди.... дисс. –Тошкент, 2000. – 120 б.

belgilariga ko'ra ajratib chiqilgan. Umumlashtiruvchi va farqlovchi semalar ajratilib, ularga izoh berilgan³⁹.

D.M.Yuldashevaning nomzodlik dissertatsiyasida alla, ovutma, erkalatma, ertak, topishmoq, maqtoq, masxaralama va tez aytishlarda qo'llanangan zoomimlar o'rganilgan. Masalan, mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon nomlari (arslon, yo'lbars, qoplon) itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon nomi (bo'ri) yakkatuyoiqlilarga mansub sutemizuvchi hayvon nomlari (toychoq), bir yoki ikki o'rkachli yirik sutemizuvchilar nomi (tuya)⁴⁰.

B.P.Zaripov⁴¹ nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy ijodida badiiy san'atlarni hosil qilishda 337 ta zoonim qo'llangani haqida ma'lumot beradi. Ulardan 117tasi chorva mollari, 97 tasi qush nomlari, 9 tasi sudralib yuruvchi hayvon nomlari, 48 tasi yovvoyi hayvon nomlari, 41 tasi hasharot va boshqa mayda jonivorlar, 6 tasi suv hayvonlari 12 tasi afsonaviy jonzotlar nomi ekanligi qayd etilgan. Ishda ot, o'rdak, kiyik kabi jonivorlarning Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan tarixiy nomlari keltirilgan. Zoonimlarning jinsi, rang-tusi va yoshiga qarab nomlanishi asoslari keltirilgan.

D.M.Yuldashevaning nomzodlik dissertatsiyasida alla, ovutma, erkalatma, ertak, topishmoq, maqtoq, masxaralama va tez aytishlarda qo'llanangan zoomimlar o'rganilgan. Masalan, mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon nomlari (arslon, yo'lbars, qoplon) itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon nomi (bo'ri) yakkatuyoiqlilarga mansub sutemizuvchi hayvon nomlari (toychoq), bir yoki ikki o'rkachli yirik sutemizuvchilar nomi (tuya)⁴².

Masalan, cho'chqa go'shti yeyish, aroq ichish odatining islomda man etilishi (etnografik tabu) bilan bog'liq voqelik nomlari ham to'g'ridan

³⁹ Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент: 2017, 16-б.

⁴⁰ Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар. Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2007. – 124 б.

⁴¹Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (А.Навий асарлари асосида): Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2002. – 128 б.

⁴² Юлдашева Д.М. Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар. Филол.фанлари номзоди.... дисс. – Т., 2007. – 124 б.

to'g'ritilga olinmagan. Cho'chqa so'zi o'rnida qora kiyik, oq qo'y; aroq so'zi o'rnida ichimlik, shisha, oq, zahri qotil, og'u, haligi so'zalri qo'llanilgan. Miloddan avval turkiylarning bayrog'ida ham bo'ri surati bo'lgan. Gunnlar Yevropaga borganda, ularning boshliqlari rasmini xuddi mana shu suratdagidek qilib chizishgan. O'lis avlodlarimiz o'zlarining kelib chiqishlarini bo'riga bog'lashgan⁴³. Sharq xalqlarida ham o'n ikki yil (bir muchal) o'n ikki hayvon (mush – sichqon, baqar – sigir, falang – ilon, asp – ot, go'sfand – qo'y, hamduna – maymun, murg' – tovuq, sak – it, xuk – cho'chqa (ba'zi xalqlarda akula, timsoh, ajdarho ham qatnashadi)); o'n ikki oy hamal (qo'y ramzi), savr (ho'kiz), javzo (ikki qiz bola yoki egizaklar), saraton (qisqichbaqa), asad (sher), sunbula(boshqoq), mezon (tarozi), aqrab (chayon), qavs (o'qotar), hut (baliq) nomlari bilan atalgan va inson taqdiri, fe'l-atvori, baxt va baxtsizligi uning muchali (qo'y yilida tug'ilganmi, ilon yilida tug'ilganmi kabi), yil va fasllarning qanday kelishi ham muchal nomlari bilan bog'liq, deb tushunilgan⁴⁴.

A. Omonturdiyev⁴⁵ ning ilmiy tadqiqot ishida chorvadorlar nutqi obyekt sifatida olingan. Chorvadorlar nutqi bevosita hayvonlar bilan bog'liq. Ishda zoonimlarga oid bir qator ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, islomiy xalqlarda hayvonlardan, xususan, qo'y, it, ot, tuya madaniylashtirilgan. Qo'y eng pok – Behishtdan chiqqan. Ismoil alayhisalom joniga badal sifatida ham Jannatdan qo'chqor yuborilgan. Shundan boshlab, odamni qurbonlikka so'yish man etiladi. Rivoyatga ko'ra insonni Sirot ko'prigidan ham qo'y olib o'tadi va h.k.

B. Jo'rayeva tomonidan o'zbek tilshunosligida ilk bor maqollarning sinonimik lug'ati yaratildi⁴⁶. Mazkur ishda zoonimlar asosida tartiblangan paremik birliklar sinonimiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, sinonim maqollarning ma'no qirrasidagi farqlanishida uch maqol qatnashadigan sinonimik uyaga misol sifatida *Yaxshi muomalaga tuya ham so'kadi; Yaxshi*

⁴³ Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат. – Т.: Ёзувчи, 1976. –186 б.

⁴⁴ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. (chorvadorlar nutkimisoliida) Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Тошкент – 2009, 31-б.

⁴⁵ Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. (chorvadorlar nutkimisoliida) Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация Тошкент – 2009, 31-б.

⁴⁶ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луг'ати. –Т.: ФАН, 2007.

Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. ном. дис. – Самарқанд, 2019, –74 б.

soʻz filni ham yoʻlga solar; Sigirni ham silasa sut berar kabi maqollar keltirilgan. Grammatik qurilishi bir xil sinonim maqollarga esa: Ikki tuya olishar, oʻrtada pashsha yanchilar; Ikki aygʻir tishlashar, oʻrtada soʻna yanchilar; Ikki ot tepishsa, oʻrtada eshak oʻladi; Ikki ajdar urishsa, oʻrtada toshbaqa pachoq boʻladi.

I Bob yuzasidan xulosa

Etnik guruhlarning, ya'ni xalqlarning marosim madaniyati to'g'risidagi materiallarni yig'masdan hayvonlarning mifologik ramziyligini aniqlash birmuncha qiyin masala. Shu tufayli olimlar xalq marosimlarida hayvonlarning rolini o'rganib chiqadi va ularning turlicha ekanligini ta'kidlaydi. Masalan, insonlar mo'miyoga(to'liq hayvonga) va tananing organlari, qismlariga(qisman hayvonga) sig'inish orqali sehrli hodisalar ro'y berishiga ishonishgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu nodir asarda "qo'y" LMGi aksariyat ijobiy ma'noda qo'llangan. Qo'y hayvonining yoshiga ko'ra darajanishi, a'zosi, mahsuloti, hayot kechirishi, ko'payishi izohlangan. Asarni o'rganish davomida XI asrda qo'y hayvoni xalqimizning o'tmishdagi hayotida, turmush tarzida qanday o'rin tutganini kuzatdik. Xalqimizning boy tarixini har tomonlama o'rganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Demak, "Devonu lug'otit turk" asari o'zbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manba. Uni o'rganish, tadqiq qilish biz avlodlarning asosiy vazifamizdir.

II BOB “QO‘Y” LMGI ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

2.1. “Qo‘y” LMGI asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida metafora

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim V.A. Maslova metafora hodisasiga quyidagicha qaraydi: metafora o‘zida fundamental madaniyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan bo‘ladi⁴⁷. Olimlarning ta’kidlashicha, metafora tilning asosiy birliklari hisoblangan maqola, ibora va o‘xshatishlar bilan bir qatarga qo‘yiladi. Metafora (yunoncha «ko‘chirma» so‘zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko‘chishidir. Masalan: U tarozining ikki pallasini ko‘zdan kechirdi (I.Rahim). Yormat tarvuzni kesdi. Bir pallasini o‘zi olib, ikkinchi pallasini Yo‘lchi va O‘roz oldiga qo‘ydi (Oybek). Birinchi misoldagi palla so‘zining o‘z ma’nosi taroziga nisbatan qo‘llaniladi. Uning tashqi ko‘rinishiga ko‘ra o‘xshashligi ikkinchi misolda tarvuz bo‘laklariga nisbatan ham qo‘llanishga sabab bo‘lgan. Metafora asosida nom ko‘chish aniq narsalar doirasida bo‘lganda ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni ilg‘ash uncha qiyin bo‘lmaydi. Mavhum narsalar doirasida esa bu bir oz qiyin kechadi: Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir qo‘shni kelinchakdan o‘rgangan edim (Oybek). Yigit yalt etib qo‘shni dalaga qaradi, u yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi (M.Ismoilij). Metafora asosida nom ko‘chish birgina narsa nomi bo‘lgan otlarga daxldor bo‘lmay, boshqa turkumga mansub so‘zlarda ham uchraydi. Masalan: taqir cho‘l- taqir bosh, taqir sholcha; o‘tkir pichoq-o‘tkir hid, o‘tkir odam kabi sifatlar; dalalarda qushlar uchadi – uning jahldan lablari pir-pir uchardi kabi fe’llarda ham metafora asosida ma’no ko‘chishi uchraydi.

⁴⁷ Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб.пособие.–Москва:Academia, 2001. 91 С.

O'zbek tilshunosligida ham metaforahodisasi nazariy va lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan. Ularda, asosan, so'z-metaforalar haqida so'z yuritilgan⁴⁸. Jumladan, olimlar Durdona Xudoyberganova o'z asarida metafora to'g'risida quyidagicha fikr yuritadi: metafora qo'llangan matnlar shuni ko'rsatadiki, ularda, nafaqat, tushuncha, balkimuayyyan vaziyat ifodasi ham metaforalarga asoslanishi mumkin. Shu boisdan, metaforalarni so'z, so'z birikmasi, gap, matn shaklidagi metaforalar sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir⁴⁹. "Qo'y" LMGi asosida shakllangan maqollardagi so'z-metaforalar quyidagilardan iborat:

Echkining boshi bo'lguncha,

Qo'yning quyruq'i bo'l.

Echki mavqe jihatdan qo'ydan ancha past turadi. Echkining boshi bo'lishdan, qo'yning quyruq'i (ayn. dum ma'nosida bu quyruqning o'z ma'nosi, ko'chma ma'noda esa *doim birovga ergashib yuradigan, uning xizmatiga tayyor turadigan shaxs haqida, dum*. Soli sovuq o'z quyruq'iga buyurdi. – Jumanboy, pastdan palos olib boring, choping⁵⁰. M.Ismoilov. Farg'ona t. o.) bo'lgan afzal. Quyruq so'zning aynan ikkinchi ma'nosi maqolda metafora hodisasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Ya'ni quyruq hayvonga xos, ammo shaxsga qarata aytilganda ko'chma ma'no tashishi ifodalangan.

Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas.

Odatda sovliqning boshidan qo'chqorning boshi kattaroq bo'ladi. Ro'zg'orda ishlatiladigan qozonda bira yo'la ikki sovliqning boshi qaynashi mumkin-u, ammo ikki qo'chqorning kallasini bir qozonga sig'dirib ham, bir yo'la qaynatib ham bo'lmaydi. Bu- maqolning to'g'ri ma'nosi⁵¹. *Ma'jozan esa bir yurtida ikki prezident, bir shaharda ikki hokim, umuman, mavqe jihatdan o'zaro teng bo'lgan odamlar bir bir yerda kelishib, xotirjam yasholmaydi, degan ma'nolarda qo'llanadi*. Variantlari: "Bir ungurga ikki ayiq sig'maydi", "

⁴⁸ Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. 101-б.

⁴⁹ Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. 102-б.

⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 386-б.

⁵¹ Шомақсудов.Ш., Шораҳмедов.Ш.Хикматнома. Т., 1990, 155-бет.

Ikki kambag'al bir kapaga sig'adi, ikki boy bir dahaga sig'maydi" (kapa – qamishdan qurilgan chayla, uy; daha – shaharning bir qismi).

Ming qo'ylini qo'yi qoldi,

Bir qo'ylining qo'yi ketdi.

Ya'ni boy odamlarning davlatidan bir qismi ketsa ham bu ularga unchalik ta'sir qilmaydi, ammo yo'qsil, muxtoj oilalarda bir narsa behudaga sarflansa uning o'zni tezda bilinib qoladi. Bu maqolning majoziy ma'nosi. *Boyning mingta qo'yi bo'lishiga qaramay ularga zarar yetmaydi. Ammo kambag'al odamning yolg'iz qo'yi ham biror ofatga duchor bo'ladi.* Ma'nodoshi: "Kambag'alni tuya ustida qo'y qopar". Varianti: "Kambag'alni yolg'iz qo'zisiga qashqir tegar".

Toycha oti bo'lmasa ham,

Qo'ycha oti bor.

Toy – otning bolasi, o'rinbosari. Qo'y toy darajasi obro'ga ega bo'lmasa-da, ammo o'ziga yarasha qimmatga ega. *Ko'chma ma'noda esa u darajada boy, obro'li bo'lmasa ham o'zigayarasha mansabi, hurmat-e'tibori, hayotdao'z o'rniga ega bo'lgan insonlarga nisbatan aytilgan.*

Torta tortayesang toy orttirasan,

Qo'ya qo'ya yesang qo'y orttirasan.

Ota-bobolar kishiga turmushni yaxshi o'tkazish yuzasidan ta'lim berar ekanlar, har bir narsada, har sohada tejamkorlikka rioya qilish zarurligini aks holda moddiy qiyinchiliklarga duchor bo'lib qolishi muqarrarligini uqtirganlar: "Qirib yesang qirq kunga yetadi, O'yib yesang o'n kunga yetadi. Bunda oziq-ovqatlar ovqatga solinadigan masalliqalar (masalan, oq yog') nazarda tutilgan: "Tovug'ini yesang, bir yeysan, Tuxumini yesang ming yeysan "(tuxum qilib turgan tovug'ingni besabrlik, beqanoatlik bilan so'yib yesang, birpasda tamom bo'ladi - qo'yadi.ana undan keyin tovug'ing ham bo'lmaydi, tuxuming ham. Go'sht taqchil bo'lganda biroz sabr-u qanoat qilib tovuqni asrab qolsang yana ancha vaqtgacha uning tuxumidan bahramand bo'lib yuraverasan", deyilmoqchi); "Sog'ib ichsang ming kunlik, so'yib yesang bir kunlik" (bunda

sigir, echki biya, tuya nazarda tutilgan); “Kallaklab boqsang qirq yilga yetadi, Ko‘marib yoqsang – bir yilga”.

“Saqlasang, ming kunlik, saqlamasang, bir kunlik” (Bunda har bir narsa xoh kiyim-kechak bo‘lsin, xoh asbob-anjom bo‘lsin, xoh mol-hol bo‘lsin nazarda tutilgan. Hamma narsani tejab-tergab ishlatsang hayotda ko‘p narsalarga erishish, ega bo‘lish mumkin. Bir qism bir qism yig‘ilib bir kun katta davlat to‘plash mumkinligi xususida⁵². Qo‘y ushbu maqolda ham mol-u davlat ma‘nosida kelgan.

Topgan qo‘y keltirar,

Topmagan jo‘jaxo‘roz.

Bu maqol orqali qo‘y hayvoning e‘tiborga molelik, arzirlik semasini faollashgan. Sababi, boshqa mayda mollarga qaraganda qo‘yning qimmati yuqori. Imkoniyati bo‘lgan kishi aytilgan narsani muhayyo qila oladi, imkoniyati bo‘lmagan kishi esa o‘z sharoitidan kelib chiqib ish ko‘radi.

Tuya to‘pig‘i ham to‘piq,

Qo‘y to‘pig‘i ham to‘piq.

Har ikkalasi ham “to‘piq” deb ataladi, ammo tuyaning to‘pig‘i katta, qo‘yning to‘pig‘i esa kichik bo‘ladi. Farqi ana shunda. Hamma odam ham “odam” deb ataladi-yu, ammo odamda ham odam bor- biri yaxshi, biri yomon; biri aqlli, biri axmoq; biri saxiy, biri baxil; biri do‘st, biri dushman degan vahokazo ma‘nolar yashirin⁵³.

Yo‘lbars yo‘lbarsdir,

Hech qachon qo‘zichoq bo‘lmas.

Qo‘zichoq ulug‘vorlik jihatdan yo‘lbarsga tenglasholmaydi. U yo‘lbarsning oldida ojiz hayvonga aylanadi. Qo‘zichoq endi tug‘ilgan, yosh himoyasiz jonivor bo‘ladi. Yo‘lbars esa quch-quvvatga to‘lgan, yirtqich hayvon bo‘lganligidan ular bir-biriga zid qo‘yiladi. *Majozda ham qo‘rqoq odamlar hech qachon jasur insonlarga teng bo‘lolmaydi, degan ma‘noda qo‘llaniladi.*

⁵²Шомақсудов.Ш., Шораҳмедов.Ш.Хикматнома. Т., 1990,505-бет.

⁵³Шомақсудов.Ш., Шораҳмедов.Ш.Хикматнома. Т., 1990,400-бет.

Yolg'iz qo'yning terisi po'stin bo'lmas.

Ma'lumki, mahsulot manbai sifatida qo'yning terisidan keng foydalaniladi. Uning terisi bozorda qimmatbaho sanaladi. Ammo yolg'iz, ya'ni yakka qo'yning terisidan po'stin (yopinchiq) tikib bo'lmaydi. Po'stin uchun bir qancha qo'yning terisi ishlatiladi. Shu sababli bitta qo'yning terisi hech qachon po'stinlikka yaramaydi. Bu maqolning o'z ma'nosi. *Majozda esa xalqimizda "Kuch- birlikda" degan naql bor. Insonlar qachon o'zaro birlashsa, ana shunda ulkan ishlarga qodir bo'ladi. Aksincha yolg'izlikda esa qo'lidin hech qanday ish kelmaydigan, chorasiz kimsaga aylanadi. Bu maqolda hamjihatlik ulug'lanib, yolg'izlik qoralangan.*

Eshshakning boshi bo'lguncha,

Qo'yning oyog'i bo'l.

Varianti: "Eshakning boshi bo'lguncha, qo'yning quyrug'i bo'l". Eshak hayvonlar ichida qimmat va qiymat jihatdan eng past hisoblanadigan jonivor ("It izzatni bilmaydi, eshak – tarbiyani" maqol.). Shu tufayli baraka timsoli bo'lgan qo'yga qarama-qarshi qo'yiladi. Qo'y halollik ramzi, eshak esa aksincha. *Majozan bu maqol, katta mansab, martabaga erishmoqchi bo'lgan kimsadan ko'ra halol, mehnatkash, kichik martabasidan baraka topgan, insonlarga foydasi tegadigan kishi afzal degan ma'nolarda qo'llanadi.*

Qo'y katta, qo'zi kichik, echki sizga lozim emas.

Hayotda har narsadan noliydigan, ziqna insonlarga nisbatan bu maqol qo'llanadi. Arzimas narsalardan kamchilik topadigan kishilar tanqid ostiga olingan. Ushbu maqol har qanday narsadan kamchilik qidiridagigan, "tirnoq ostidan kir izlaydigan", umridan nolib yashovchi kimsalarga qarata aytilgan. Maqol ko'proq majoziy ma'no kasb etadi.

Qo'yning o'zi to'ymasa qorni to'ymas.

Hayotda ko'zi och insonlarga ishora sifatida ushbu maqol qo'llangan. Hech narsaga ehtihoj sezmasa-da mol-mulk, davlat to'plashga intilish yaxshi oqibatlariga olib kelmasligi uqtirilgan.

Qo‘rqoqqa qo‘y boshi qo‘sh qo‘rinar,

Qo‘shmog‘i bilan besh ko‘rinar.

Qo‘y boshqa uy jonivorlariga qaraganda mayda mol hisoblanadi. Qo‘rqoq odam shu mayda narsanning boshidan ham qo‘rqadi. Kichkina narsadan ham shubhalanib, hayiqib xavotirda yuradi. Maqol ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, hayotda mard, kuchli bo‘lishga undab aytiladi.

Qo‘yni sarasi uzoqdan bilinar.

Haqiqiy jasur, kuchli insonlarni bir qarashda boshqalardan ajrata olish mumkin. Insonning sarasi ham uning yurish-turishidan, gap-so‘zidan, tashqi ko‘rinishidan yaqqol seziladi.

Turkistonda qo‘y bir so‘m,

Kela – kela o‘n bir so‘m.

Yuqoridagi maqolda qo‘y LMGining tez ulg‘ayuvchanlik, xayr-baraka semasi faollashgan va ijobiy sema kasb etgan. Qo‘y tezda voyaga yetganligi sababli, egasiga kam vaqt ichida ko‘p daromad keltirishga xizmat qiladi.

Uyurli qo‘ydan bo‘ri qo‘rqar.

“Kuch birlikda” deganlaridek, har qanday birlashgan kuch qarshisida yakka inson yoki hayvon ojiz qoladi. Sinonimi: “Oltovlon ola bo‘lsa og‘zidagini oldirar, To‘rtovlon tugal bo‘lsa tepadagini endirar”. Maqolda ahillik va hamjihatlik ulug‘langan.

Yolg‘iz qo‘yni bo‘ri yer.

Yuqoridagi maqolning tasdig‘i sifatida ushbu maqolda ham yolg‘izlik qoralanib, birgalik, hamjihatlik ulug‘langan. Sinonimi: “Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer”.

O‘ynoqi qo‘zi oyna sindirar.

Hayotda ham o‘ynoqi, yengil tabiatli kishilar ko‘p pand yeyishi ushbu maqol misolida yoritilgan. Bunday kimsalar o‘ziga va o‘zgalarga ko‘p ziyon yetkazishi “oyna sindirish” misolida metafora hodisasi orqali yortilgan.

Qo‘yini biron qarar,

Sutini kimlar ichar.

Mehnat qilib, og‘ir zahmatlar chekkan insonlar bir chekkada qolib, rohatini boshqa insonlar ko‘rishi ta’kidlangan. Zolim xonlar mehnatkash xalq ustidan hukm yuritgan chog‘larda ham haqsizlik ustun bo‘lganligi aytilgan. Buni anglab yetgan xalq donishmandlari ushbu maqolni qo‘llagan va maqol zamirida metafora hodisasi yashirin tarzda ifodlangan.

Bitta qo‘tir qo‘y butun podani bulg‘ar.

Butun jamiyatni yomon otliq qilish uchun bitta yovuz, ig‘vogar odam yetarli. U o‘z qarashlari, nuqtayi nazari bilan boshqalar fikrini o‘zgartirib, jamoada o‘ziga o‘xshagan kimsalar ko‘payishiga xizmat qiladi. Bu ma’no, o‘z navbatida, metafora hodisasini yuzaga keltirgan.

Agar bitta qo‘y ariqdan sakrab o‘tsa, qolganlari unga ergashadi.

Yetakchilik, rahbarlik lavozimiga ko‘tariladigan kishilar har tomonlama o‘rganilib, chuqur sinovdan o‘tkaziladi. Sababi, ular yetaklagan jamiyat yo tanazzulga boradi, yoki yuksaklikka erishadi.

Podani qo‘chqor yetaklar.

Qo‘chqor kuchli va qo‘rqmas bo‘lganligi uchun podani belgilangan manzilga yetaklab borish vazifasini bajaradi. Har bir ishni oilaning ustuni, erkagi boshlab beradi. Shunda ishda baraka, xonadonda fayz bo‘ladi. Maqolda qo‘chqor er-yigitlarga qiyoslangan.

Xulosa qilib aytganda, “qo‘y” LMGi qatnashgan xalq maqollarining deyarli barchasi ko‘chma ma’no kasb etadi. Ayniqsa, ma’no ko‘chishining metafora hodisasi ushbu matnlarning ko‘p qismida uchrashi yuqoridagi maqollarda kuzatildi.

2.2. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida metonimiya

Metonimiya (yunoncha “qayta nomlash”, “nomini almashtirish”) narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o‘zaro bog‘liqligi, doimiyaloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom ko‘chishda narsalar (otlar) o‘rtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar asos bo‘lishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: Moyi tugab piligi so‘xta bo‘lgan chiroq bir lip etib so‘ndi (S.Ahmad). Sochini mayda o‘rib uchiga pilik taqqan edi (S.Ahmad); 2) narsalarning o‘ziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: beshik-maktab ta’lim va tarbiya beshigidir, qaldirg‘och-litseyimiz qaldirg‘ochlari; 3) o‘rinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko‘chadi: kosa, qoshiq, tovoq-ovqat, zal-zal kulib yubordi, sinf-sinf oyoqqa qalqdi ma’nolarida ishlatiladi; 4) harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga ko‘chiriladi: Machitdan shom azoni eshitildi...(Sh.Toshmatov). Azonga yaqin bir iloj qilib qochibdi (P.Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo‘lgan belgi aloqadorligi asosida ko‘chadi: tulki-ayyor, mug‘ombir odam, iflos-betayin, jirkanch kishi; 6) harakat, o‘yin obyekti shu o‘yinning nomi sifatida ko‘chadi: uloq-uloq chopmoq va boshqalar. Sifat va fe‘l turkumiga mansub so‘zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo‘lib, ularda ko‘chma ma’no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: qisqa yo‘l-qisqa nutq, qisqa ovoz, beg‘ubor osmon-beg‘ubor odam, beg‘ubor ko‘ngil; bola boqmoq-kishini hunar boqadi, bog‘ni boqsang bog‘ bo‘lur.

Metonimiya hodisa o‘zaro bog‘liklik, aloqadorlik asosida ma’no ko‘chishi hisoblanadi. Tadqiqotimiz davomida quyidagi maqollarda ham metonimiya hodisasini kuzatdik. Ularni tahlil jarayonida yanada yoritishga harakat qildik.

Barakali qo‘ychining so‘ygan

Chumchug‘i ham qo‘y bo‘lar.

O‘zbek xalqi orasida qadimdan saqlanib qolgan e‘tiqodiy tushunchalardan biri ba‘zi odamlarning qo‘lini barakali, tabarruk deb hisoblashdir. Biror narsa sotib olinadigan bo‘lsa ko‘pincha “Baraka qo‘lli” odamdan olingan. Qo‘lni barakali deb hisoblash kontekstda metonimiya hodisasini yuzaga chiqargan. Ushbu tushunchaga asosan ba‘zi qassobning ham qo‘lini barakali deb bilib qo‘yni o‘shanday kishiga so‘ydiradilar, “u so‘ygan qo‘yning go‘sht-yog‘i barakali bo‘ladi”, “bunday qassob chumchuq so‘ysa ham qo‘yni barakasini beradi” degan umidda ixlos qilganlar. “Qo‘y” leksemasi ushbu maqolda xayr-baraka, mo‘l-ko‘lchilik semasi bilan bir qatorda asosiy ozuqa (go‘sht-yog‘) manbai sifatida ham ishlatilgan.

Bir qo‘ylikni ming qo‘ylik qilgan – Arslondining yeri,

Ming qo‘ylikni bir qo‘ylik qilgan – Arslondining yeli.

Xalqimizda bu maqolning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan bir rivoyat borki, uning qisqacha mazmuni shunday: “Turkiston shahrining janubi-sharqiy tarafida Arslondi degan bir yaylov joy bor. Qadim zamonlarda bir kambag‘al odam shu yerga kelib qolib, bisotidagi bitta-yu bitta qo‘yini boqa boshlagan. Arslondining yeri o‘t-o‘lanlarga juda boy ekan. Haligi odam qarasa ishi yurishadigan. Keyin shu yerga o‘tov tikib, turg‘un bo‘lib qolibdi. Qo‘yi egiz-egiz tug‘ib yil sayin ko‘paygandan ko‘payib ketaveribdi. Axiri qo‘ylarining soni mingtaga yetibdi. O‘sha yili qish har yilgidan qattiq kelib, kuchli bo‘rondan qochgan qo‘ylar har tarafga qochib, Aris daryosining yoqasiga borganda qayga borarini bilmay birin-ketin o‘zini suvga tashlay boshlabdi. Ertasiga bo‘ron bitgach egasi qo‘ylarini qidirib daryo yoqasiga borib qolibdi. Qarasa daryo taraqlab muzlagan. Muz orasida qolib ketgan qo‘ylarning boshi, qulog‘i, oyog‘i, u yer bu yeri chiqib, ko‘rinib turgan emish. Shunda ming qo‘yidan ajrab, yangi tuqqan sovlig‘igagina ega bo‘lib qolgan haligi odam afsuslanib yuqoridagi maqolni aytgan ekan. Mazkur maqolni biror o‘zga yurtga borib, boylik, obro‘-e‘tibor topib, pirovardida xor-zorlikka uchragan odamga qarata ma‘joziy

ma'noda qo'llaydilar ⁵⁴. Ushbu maqolda metonimiya hodisasi orqali ma'no ko'chgan. Ya'ni, bir qo'yi bor **kishini** ming qo'yi bor kishiga aylantirgan yer, qo'ylik so'zi qo'yi bor kishi degan ma'noda qo'llanib, metonimiyani yuzaga keltirishga xizmat qilgan.

Xushomadgo'yga qo'y so'ydirma.

Xushomadgo'y – xushomad aytuvchi, birovga xushomad qiluvchi, laganbardor. Xushomadgo'ylik faqat insonga xos xususiyat, u bilan bog'liq sifat. Shu sababdan maqolda xushomadgo'y so'zi orqali ko'chish hodisasi kuzatiladi. Hayotda xushomadgo'y kishilar o'z manfaatlarini ko'zlab oriyatli insonlarni dog'da qoldirishi, aldov orqali kun kechirishi, arzimagan xizmati evaziga katta ulush talab qilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Cho'lda qo'yim bor dema, ko'lda yerim bor dema.

Varianti: "Odoqda yerim bor dema, cho'lda qo'yim". Odoq – oyoq, etak so'zining qadimiy shakli. Odoqdagi ekinni suv olib ketishi mumkin, cho'ldagi qo'yga ham ishonib bo'lmaydi– bo'ri olishi yoki bo'ron, suvsizlikdan nobud bo'lishi mumkin ⁵⁵. Biror yerning pastligiga yoki ko'lda ekin ekkanda .Cho'lda qo'y boqqanda ham maqtanish yaramaydi. Chunki inson ko'zo'ngida bo'lmagan narsaga xavf-xatar yaqinlashishehtimoli kuchli bo'ladi. Mazkur maqol biror narsaga chindan ham amin bo'lmasdan, u xususida qat'iy qilib gapirmaslik lozimligi uqtirilgan.

Ot sag'ridan, qo'y bag'ridan.

Sag'ri– ot, eshak, qoramol kabilarning orqa oyog'ining ustki qismi ⁵⁶. Otning semiz yoki baquvvatligi uning sag'ridan bilinadi. Qo'yning bag'riga qarab unga baho berishadi. Shu sababli ushbu maqol metonimiya hodisasi orqali ifodalangan. Ya'ni sag'riga qarab baholash faqat ot hayvoni bilan bog'liq jarayon, bag'rining holatiga ko'ra baholash esa qo'y hayvoniga tegishlidir.

⁵⁴Шомақсудов.Ш., Шораҳмедов.Ш.Хикматнома. Т., 1990, 52-бет.

⁵⁵Шомақсудов.Ш., Шораҳмедов.Ш.Хикматнома. Т., 1990, 284-бет.

⁵⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 467-б.

Er – lavzidan,

Qo‘y – bo‘g‘zidan.

Lafz⁵⁷ – arabcha tallafuz, so‘z, ibora. 1. So‘z, kalima, til. 2. Berilgan va‘da, ahd, so‘z. Qo‘yni bo‘g‘zidan so‘yish odati bizga Zardusht zamonidan yetib kelgan. Bir kuni Zardusht ibodatxona yonidan o‘tayotib, har xil hayqiriqlarni eshitadi va beixtiyor u yerga kiradi. Ruhoniylar qo‘ylarni to‘g‘ri kelgan joyiga pichoq suqib, jonivorlarni qiynab qurbonlik qilayotganlarini ko‘radi. Hayvonlarga rahmi kelgan Zardusht ularni bo‘g‘zidan, qiynoqsiz so‘yishni joriy qiladi. Shundan buyon qo‘y bo‘g‘zidan so‘yilgandagina halol bo‘ladi va bo‘g‘zidan osiladi. Er kishining esa lafzi halol bo‘ladi. Yigit kishi aytgan so‘zidan, gapirgan gapidan tutiladi. Yigitning erkak ekanligi uning lavzidan, qo‘yning halol ekanligi uning bo‘g‘zidan bilinadi. Maqolda halollik metonimiya hodisasi orqali ifodalangan. Variantlari: Yigit so‘zidan osilar, qo‘y – bo‘g‘zidan. Yigit so‘zidan, qo‘y – bo‘g‘zidan⁵⁸.

2.3. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida variantlilik

O‘zbek tilshunosligida iboralarda variantlilik hodisasi professor Sh.Rahmatullayev⁵⁹, maqollarda variantlilik hodisasi filologiya fanlari doktori B.Jo‘rayeva⁶⁰ tomonidan tadqiq etilgan.

Maqollardagi variantlilik hodisa 2 guruhga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Leksik variantlar.
2. Grammatik variantlar⁶¹.

Leksik variantlar maqol leksik tarkibidagi o‘zgarishning xarakteriga qarab, uch turli bo‘ladi:

1. So‘z yoki so‘zlarni almashtirish bilan yuzaga keladigan turi – leksik almashtirish.

⁵⁷Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 490-бет.

⁵⁸Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 152-б.

⁵⁹Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Тошкент:Фан, 1966. – 264б.

⁶⁰Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари.Фан, 2007.

⁶¹Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари.Фан, 2007.

2. So‘z yoki so‘zlarni qo‘shish bilan yuzaga keladigan turi – leksik qo‘shish.

3. So‘z yoki so‘zlarni tashlash bilan yuzaga keladigan turi– leksik tashlash⁶².

Leksik almashinuvda maqol tarkibidagi ayrim so‘zlar almashadi.

Bir qo‘chqorning *shoxi singuncha*,

Yuzta *qo‘yning* boshi ketadi⁶³.

Bir qo‘chqorning *boshi ketguncha*, ming *sovluq* boshi ketadi⁶⁴;

Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, necha *to‘qlining* boshini yeydi⁶⁵.

Bir qo‘yning boshi ketguncha, necha qo‘chqorning boshi ketadi⁶⁶.

*“Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, minglab qo‘yning boshi kesilar emish, deb ayt domlangga! – dedi”*⁶⁷.

So‘z almashtirish natijasida hosil bo‘ladigan variantlarni qaysi so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra⁶⁸ quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1. Ot komponentni almashtirishga asoslangan variant.

1) iste‘mol mahsulotlari nomining almashinuviga asoslangan variant:

Qo‘noq qo‘ydan ham yuvosh, *moy bersang* ham yeyaveradi⁶⁹.

Qo‘noq qo‘ydan ham yuvosh, *quyruq bersang* ham yeyaveradi.

Ko‘ngli oq qo‘ydan ham yuvosh, *moy bermasang* ham yeyaveradi⁷⁰.

– *Qo‘noq qo‘ydan ham yuvosh, quyruq bersang ham yeyaveradi*, – *dedi*⁷¹.

Ho‘kizning o‘tini yeb, *toyning qilig‘ini qilma*⁷².

Ho‘kizning o‘tini yeb, *qo‘yning qilig‘ini qilma*⁷³.

⁶² Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. Фан, 2007.

⁶³ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 48-бет.

⁶⁴ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 48-бет.

⁶⁵ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 48-бет.

⁶⁶ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 398-б.

⁶⁷ Қодирий. А. Ўткан кунлар. Янги аср авлоди. – Т., 2014, 160-б.

⁶⁸ Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. Фан, 2007.

⁶⁹ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 300б.

⁷⁰ Холманова З. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. Т.: Турон zamin ziyo, 2016, 209-бет.

⁷¹ G‘ulom. G‘. Qayda baxt. Т.: G‘. G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san‘at” nashriyoti. 1973, 317-b.

⁷² Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Итомлик. II том. Фан 1988 336б.

2) Ot va sifat komponentni almashinuviga asoslangan variant:

Qo'y semizi qo'y chidan, To'y tamiz⁷⁴i – to'y chidan⁷⁵.

Tamiz – imtiyoz berish; farqlash, sog'lom fikr; fahm-farosat. O'z biligi, aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobiliyati; fahm-farosat. Tamiz⁷⁶–idrok, fahm demakdir.

Qo'y semizi qo'y chidan, To'y semizi – to'y chidan⁷⁷.

2. Sifat komponentni almashtirishga asoslangan variant

Semiz qo'yning umri qisqa⁷⁸.

Semiz qo'yning umri kalta⁷⁹.

3. Son komponentni almashtirishga asoslangan variant(bunda “qo'y”

LMGi boshqa zoonim nomlari bilan variantlilik hosil qiladi):

Bo'ri qarisa ham bitta qo'yga kuchi yetar⁸⁰.

Bo'ri qarisa ham bir qo'y olar kuchi bor⁸¹.

Ming qo'ylining bir qo'yiga ishi tushadi.

Qirq otliqning ishi bir eshakliga tushibdi;

Qirq eshaklikning ishi bir eshaklikka tushibdi.

– Yo falak!..

Dunyoning ters kelganini ko'ring endi!..

Ming qo'ylining ishi bir qo'yiga tushadi, deganimi bu? Yoki har zamonda bir zamon deganimi⁸²?..

4. Ravish komponentni almashtirishga asoslangan variant:

Bir qo'chqorningshoxi singuncha,

⁷³ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turon zamin ziyo, 2016, 215-бет.

⁷⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981.655-бет.

⁷⁵Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 476-б.

⁷⁶Шомақсудов. Ш., С.Долимов. Кенг уйнинг келинчаги. УзССР бадий адабиёт нашриёти. Тошкент_1961. 147-бет.

⁷⁷ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 211-бет.

⁷⁸Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 367-бет.

⁷⁹Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 467-б.

⁸⁰ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 207-бет.

⁸¹Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 75-бет.

⁸²Iqbol Mirzo. Bonu. 104-bet.

Yuzta qo‘yning boshi ketadi⁸³.

5. Fe‘l komponentni almashtirishga asoslangan variant:

Ikki qo‘chqorning boshi bir qozondaqaynamas;

Ikki qo‘chqorning boshi bir qozondapishmaydi⁸⁴.

6. Ot, fe‘l, son komponentlarni almashtirishga asoslangan variant:

Bir qo‘chqorning *shoxisinguncha*, yuzta qo‘yning boshi ketadi.

Bir qo‘chqorning *boshi ketguncha*, *ming sovluq* boshi ketadi; Ushbu maqolda darajalanish hodisasi mavjud. Birinchi variantda

7. Ravish komponentni almashtirishga asoslangan variant:

Qo‘ychivon *ko‘p* bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar;

Qo‘ychivon *mo‘l* bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar.

Xo‘blar tiyg‘i yetishmasdin burun bu zor o‘lar,

Chin emishkim, bo‘lsa ko‘p qassob, qo‘y murdor o‘lar.

(Navoiy⁸⁵).

So‘z almashinishi natijasida hosil bo‘ladigan variantlar almashinuvchi so‘zlarning munosabatiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi:

1) almashinuvchi so‘zlar tur-jins munosabatida bo‘ladi:

Er –lavzidan, qo‘y – bo‘g‘zidan. Lafz⁸⁶ – arabcha tallafuz, so‘z, ibora. 1.

So‘z, kalima, til. 2. Berilgan va‘da, ahd, so‘z.

Yigit so‘zidan osilar, qo‘y– bo‘g‘zidan.

Yigit so‘zidan, qo‘y– bo‘g‘zidan⁸⁷.

Echkidan qo‘y bo‘lmas, eshakdan toy bo‘lmas⁸⁸.

Echkidan qo‘y bo‘lmas, qulunchadan toy bo‘lmas.

Echki qo‘y bo‘lmas, eshakdan toy⁸⁹.

2) almashinuvchi sinonim so‘zlardan biri umumnutq so‘zi, ikkinchisi esa so‘zlashuv bo‘yog‘iga ega bo‘ladi:

⁸³ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 48-бет.

⁸⁴ Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. III jild. Т. 1963. 392-bet.

⁸⁵ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 502-бет.

⁸⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 490бет.

⁸⁷ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 152б.

⁸⁸ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. II. 184

⁸⁹ ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turon zamin ziyo, 2016, 216-бет.

Ikki qo‘chqorning *boshi* bir qozonda qaynamas;

Ikki qo‘chqorning *kallasi* bir qozondapishmaydi.

3) almashinuvchi sinonim so‘zlardan biri umumnutq so‘zi, ikkinchisi esa eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi:

Cho‘lda qo‘yim bor dema, ko‘lda yerim bor dema;

Odoqda yerim bor dema, cho‘lda qo‘yim. (*Odoq* – oyoq, etak so‘zining qadimiy shakli. *Odoqdagi* ekinni suv olib ketishi mumkin, cho‘ldagi qo‘yga ham ishonib bo‘lmaydi– bo‘ri olishi yoki bo‘ron, suvsizlikdan nobud bo‘lishi mumkin⁹⁰).

4) almashinuvchi so‘zlar faqat kontekstda sinonimlikni tashkil etadi:

Eshakning boshi bo‘lguncha, qo‘yning quyrug‘i bo‘l.

Quyruq (1 ayn.dum 1. Quyruq‘i uzun it.2.ko‘chma Doim birovga ergashib yuradigan, uning xizmatiga tayyor turadigan shaxs haqida;dum.Soli sovuq o‘z quyruq‘iga buyurdi:–Jumanboy, pastdan palos olib boring, choping.3 ayn. Dumba 4. Samolyot, kema va sh.k ning orqa qismi.

Eshakning boshi bo‘lguncha, qo‘yning oyog‘i bo‘l;

5) **tematik yaqinligi bo‘lgan so‘zlar o‘rin almashadi:**

Oq qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, *qora* qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar;

Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, *echkini* ham o‘z oyog‘idan osadilar.

6) **Predmet va unga xos xususiyatni ifodalovchi leksemalar almashinuviga asoslangan variant:**

Bedov (forscha –tez yuguradigan, chopqir, chopog‘on; ildam, tez harakat qilish⁹¹) boylovda semirar, Qo‘y-qo‘zi yaylovda⁹².

Ot boylovda semirar, qo‘y *haydovda* semirar⁹³.

So‘z almashtirish natijasida hosil bo‘ladigan variantlar almashinuvchi so‘zlar miqdoriga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

⁹⁰ Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 284-бет.

⁹¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 74-бет.

⁹² Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 462б.

⁹³ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 360б.

1. Faqatgina bir soʻzning almashinuvi bilan yuzaga keluvchi variant:

Oqsoq *qoʻy* tushdan keyin maʼraydi⁹⁴;

Oqsoq *qoʻzi* tushdan keyin maʼraydi.

2. Bir necha soʻzlarning almashinuvi bilan yuzaga keluvchi variant:

Boʻri bor boʻlsin desang, *qoʻy* *but* *boʻlmas*;

Boʻriga *rahm qilsang*, *qoʻyning shoʻri quriydi*.

II. Leksik qoʻshish.

Oq *qoʻyni* ham oʻz oyogʻidan osadilar, *qora* *qoʻyni* ham oʻz oyogʻidan osadilar;

Qoʻyni ham oʻz oyogʻidan osadilar, *echkini* ham oʻz oyogʻidan osadilar.

III. Leksik tashlash.

1. Soʻz tushib qoladi.

a) sodda gap tuzilishiga ega maqollarda soʻz tushib qoladi:

qoʻshma gap tuzilishli maqollarda ikkala sodda gapning kesimi ham bir xil soʻz bilan ifodalangan boʻlsa, ikkinchi sodda gapning kesimi tushib qoladi:

Echkinioʻz oyogʻidan osadilar,

Qoʻyni ham.

– *Agar biror kishi uning oldida kooperativdan soʻz ochsa: “Echkinining oʻz oyogʻidan, qoʻyning ham oʻz oyogʻidan osadilar”. Senga ikki yoʻl: bittasi oʻng, bittasi soʻl. Oʻng yoʻl qolib chap yoʻl bilan kooperativdan savdo qilsang, jazosini koʻra berasan. Uning butun moli bizdan olingan nalogdan, deydi*⁹⁵.

– *Echkini oʻz oyogʻidan qoʻyni ham oʻz oyogʻidan osadilar*⁹⁶.

– *Qoʻy oʻz oyogʻi bilan osiladi, echki oʻz oyogʻi bilan*⁹⁷.

– *Mayli, kim nima desa - desin! Qoʻyniyam oʻz oyogʻidan osadi, echkiniyam*⁹⁸.

– *Mayli, singlim, qoʻyni ham echkini ham oʻz oyogʻidan osadilar. Bu ishingiz insofdan emas*⁹⁹.

⁹⁴ Шомақсудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 339-бет.

⁹⁵ Gʻulom.Gʻ. Tanlangan asarlar. 6-tom. Adabiyot va sanʼat nashriyoti. T., 1946, 57-b.

⁹⁶ Ahmad. S. Jimjitlik. Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. T., 1989, 36-b.

⁹⁷ Muxtor. O. Ayollar mamlakati va saltanati. T.: Yosh gvardiya, 1997, 58-b.

⁹⁸ Hoshimov. Oʻ. Ikki eshik orasi. T.: Sharq, 2012, 384- b.

– Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, echkini ham, agar otam qarzdor bo‘lgan bo‘lsa, menga nima dahli bor? – dedi¹⁰⁰.

–Har qo‘yni o‘z oyog‘idan osadilar. U dunyoda sen o‘z savobu gunohing uchun ajr olgandek, meni ham qilib yurgan amallarimga qarab taqdirlaydi¹⁰¹.

–Nimalar deyaпman, tizzasi yirtiqqa kulyapmanmi? Echkiniam qo‘yniyam o‘z oyog‘idan osishadi. Unga baho berishga haqqim yo‘q¹⁰²...

Yuqoridagi maqolning tojik tilidagi varianti: *Buzro ba poi xudash meovezand, go‘spandro ba poi xudash*¹⁰³.

Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadi, echkini ham o‘z oyog‘idan osadi¹⁰⁴.

Oq qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osarlar, qora qo‘yni ham¹⁰⁵.

Bedov (forscha –tez yuguradigan, chopqir, chopog‘on; ildam, tez harakat qilish¹⁰⁶) boylovda semirar, Qo‘y-qo‘zi yaylovda¹⁰⁷.

Ot boylovda semirar, qo‘y haydovda semirar¹⁰⁸.

Ko‘ngil o‘ygato‘ymaydi, bo‘ri qo‘yga;

Ko‘ngil o‘ygato‘ymaydi, bo‘ri qo‘ygato‘ymaydi.

b) qo‘shma gap tuzilishli maqollarda aniqllovchi tushib qoladi:

Oq qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, qora qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar¹⁰⁹;

Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, echkini ham o‘z oyog‘idan osadilar.

c) qo‘shma gap tuzilishli maqollarda har ikkala gapning kesimi tushib qoladi:

Er– lavzidan, qo‘y – bo‘g‘zidan;

Yigit so‘zidan osilar, qo‘y– bo‘g‘zidan.

Sintaktik almashinish

⁹⁹ Shuhrat. Bir kecha fojiasi. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. 142-b.

¹⁰⁰ Ayniy. S. Doxunda. T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1956, 100-b.

¹⁰¹ Hamdam. U. Muvozanat. T.: Sharq, 2007, 47- b.

¹⁰² Iqbol Mirzo. Bonu. 104-bet.

¹⁰³ Калонтаров Я.И.Таджикские пословицы и поговорки в аналогии с русскими.Издательство Ирфон. Душанбе 1965. С. 144.

¹⁰⁴ Калонтаров Я.И. Мудрость трёх народов. Издательство Адиб. Душанбе 1989. С. 242

¹⁰⁵ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 366 -б.

¹⁰⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 74-бет.

¹⁰⁷ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 462-б.

¹⁰⁸ Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 360-б.

¹⁰⁹ Шомақсудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 337-бет.

1. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'rin almashadi:

*Og'irlikni yer ko'tarar, Semizlikni qo'y*¹¹⁰.

*Semizlikni qo'y ko'tarar, Oriqlikni -yer*¹¹¹.

Sintaktik tashlash.

1. Qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi sodda gap tushib qoladi:

1) *Og'irlikni yer ko'tarar, Semizlikni qo'y*¹¹².

*Semizlikni qo'y ko'tarar, Oriqlikni -yer*¹¹³.

*Semizlikni qo'y ko'tarar*¹¹⁴.

2) *Qo'y semizi – qo'ychidan, to'y semizi – to'ychidan*¹¹⁵.

*Qo'y semizi qo'ychidan*¹¹⁶.

3) *Qo'chqor bo'lar qo'zining peshonasi do'ng bo'lar*¹¹⁷.

*Qo'chqor bo'lar qo'zining peshonasi do'ng bo'lar, og'a bo'lar yigitning peshonasi keng bo'lar*¹¹⁸.

4) *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz, topgan qo'y keltirar, topmagan-jo'jaxo'roz*¹¹⁹.

*Topgan qo'y keltirar, topmagan-jo'jaxo'roz*¹²⁰.

5) *Qo'rqoqqa qo'y boshi qo'sh ko'rinar, qo'shmog'i bilan besh ko'rinar*¹²¹.

*Qo'rqoq kishiga qo'y boshi qo'sha ko'rinar*¹²².

2. Ikkinchi variantda to'ldiruvchilar tushib qoladi:

¹¹⁰ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 214-бет.

¹¹¹Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик.II том. Фан 1988 28 б.

¹¹²ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 214-бет.

¹¹³Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик.II том. Фан 1988 28 б.

¹¹⁴Шомаксудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 368-бет.

¹¹⁵ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 211-бет.

¹¹⁶Шомаксудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 502-бет.

¹¹⁷ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 213-бет.

¹¹⁸Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 179-б.

¹¹⁹Шомаксудов. Ш., Шораҳмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 396-бет.

¹²⁰Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 423 -б.

¹²¹Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 303 -б

¹²²Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 302-б.

Qo‘ziligida *sutga* to‘ymagan, to‘qliligida *turtkisin* qo‘ymas¹²³.

Qo‘ziligida to‘ymagan to‘qqizida to‘ymas¹²⁴.

Morfemik tashlash

Qo‘yni qassob so‘ysin, oshni oshpaz pishirsin¹²⁵.

Qo‘yni qassob so‘ysin, oltinni zargar so‘qisin¹²⁶.

Qo‘yni qassob so‘ysin, o‘likni g‘assol yuvsin¹²⁷.

Qo‘yingni qassobga so‘ydir, o‘ligingni yuvg‘uchiga yuvdir¹²⁸.

Qo‘yni qassobga so‘ydir, o‘likni yuvg‘uchiga yuvdir¹²⁹.

Qo‘yni qassob so‘ysin¹³⁰.

Grammatik almashinish

1. Sifatdosh va zamon shakllari o‘zaro almashinib keladi:

Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas;

Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda pishmaydi.

2. Zamon qo‘shimchalari o‘zaro almashinib qo‘llanadi:

1) Qo‘ychivon *ko‘p* bo‘lsa, qo‘y harom o‘lar;

Qo‘ychivon *ko‘p* bo‘lsa, qo‘y harom o‘ladi¹³¹.

2) Qo‘y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi¹³².

Qo‘y bir terining ichida necha ozib, necha semirar¹³³.

Ushbu maqol tojik tilida: *Qassobki bisyor shud, go‘sfand harom memurad*¹³⁴ tarzida ifodalanadi.

3. Zamon shakllari o‘zaro o‘rin almashadi:

Qo‘ya-qo‘ya yesang qo‘y ortar, torta-torta yesang toy ortar¹³⁵.

¹²³Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 296-б.

¹²⁴Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 296 -б.

¹²⁵Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 298-б.

¹²⁶Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 431-бет.

¹²⁷Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 431-бет.

¹²⁸Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 431-бет.

¹²⁹Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 431-бет.

¹³⁰Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Итомлик. II том.Фан 1988 297-б.

¹³¹Калонтаров Я.И. Мудрость трёх народов. Издательство Адиб. Душанбе 1989. С. 177.

¹³²Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 501-бет.

¹³³Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 427-б.

¹³⁴Калонтаров Я.И.Таджикские пословицы и поговорки в аналогии с русскими.Издательство Ирфон. Душанбе 1965. С. 332.

Qo‘ya-qo‘ya yesang qo‘y orttirasani, torta-torta yesang toy orttirasani¹³⁶.

3. Gap bo‘laklaridan kesim va ega-kesim o‘zaro o‘rin almashadi:

Bo‘ri qarisa ham bitta qo‘yga *kuchi yetar*¹³⁷.

Bo‘ri qarisa ham bir qo‘y olar *kuchi bor*¹³⁸.

Grammatik tashlash

Qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi sodda gap tushib qoladi:

Qo‘y bergan kishi ipidan qochmas, qiz bergan kishi sepidan¹³⁹.

Qo‘y bergan kishi ipidan qochmas¹⁴⁰.

Tartib

Echkinini ham o‘z oyog‘idan osarlar, Qo‘yni ham¹⁴¹.

Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osarlar, Echkinini ham¹⁴².

Xulosa qilib aytganda, “qo‘y” LMGi qatnashgan maqollarda variantlilik hodisasi keng miqyosda kuzatildi, tahlil qilindi. Turli mavzudagi maqollar bilan qiyosiy o‘rganildi. O‘zga millat va xalqlar maqollari bilan birgalikda solishtirildi, variantlar o‘rtasidagi tafovutlar kuzatildi.

¹³⁵Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Птомлик. II том.Фан 1988 306-б.

¹³⁶Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 505-бет.

¹³⁷ХолмановаЗ. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати.Т.:Turonzaminziyo,2016, 207-бет.

¹³⁸Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 75-бет.

¹³⁹Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Птомлик. II том.Фан 1988 296 -б.

¹⁴⁰Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент.Птомлик. II том.Фан 1988 296-б

¹⁴¹Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 72-б.

¹⁴²Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 95-б.

II BOB YUZASIDAN XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “qo‘y” LMGi qatnashgan xalq maqollarining deyarli barchasi ko‘chma ma’no kasb etadi. Ayniqsa, ma’no ko‘chishining metafora hodisasi ushbu matnlarning ko‘p qismida uchrashi yuqoridagi maqollarda kuzatildi. Mazkur tadqiqot ishida “qo‘y” LMGi qatnashgan maqollarda variantlilik hodisasi keng miqyosda kuzatildi, tahlil qilindi. Turli mavzudagi maqollar bilan qiyosiy o‘rganildi. O‘zga millat va xalqlar maqollari bilan birgalikda solishtirildi, variantlar o‘rtasidagi tafovutlar kuzatildi. O‘zbek tilshunosligida metafora, metonimiya hodisalari atroflicha tahlil etilgan. Ammo, aynan, “qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhiga oid qarashlar tadqiqot aobyekti sifatida olinmagan edi. Bobda shu jihatlarga alohida e’tibor qaratildi.

III BOB “QO‘Y” LMGİ ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING SEMANTİK XUSUSIYATLARI

O‘zbek xalq maqollari orasida “hayvon” arxisemali maqollar juda katta qismni tashkil etadi. Buni o‘zbek tilining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlari, qolaversa, xalqimizning fikrini oshkor ifodalamay, ishora va ramzlar vositasida yetkazish, o‘zgalar ko‘nglini ehtiyotlash kabi ulug‘ samimiyati bilan izohlash mumkin. Ayni shunday ifoda imkoniyati maqollar uslubiyatini belgilovchi omillardan sanaladi. Shundan bo‘lsa kerak, zoonim leksemalar markaziy element sifatida yaratilgan maqollar emotsional-ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi. Mazkur strukturadagi maqollar bir qator semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan ayrimlari ko‘chma ma‘noga asoslanadi, ya‘ni “shaxsga xos” semasi reallashadi, ayrimlarida esa “hayvon” semasi saqlanadi. Masalan, *Boq otingni arpa bilan, boqar qazi qarta bilan; Yoli quyuq eshakdan yag‘ir bo‘lgan ot yaxshi; It hurisa, bulbul to‘xtaydi*. Mazkur maqollar mazmuni zoonimik leksemaning konnotativ ma‘nosiga emas, balki denotativ ma‘nosiga asoslangan.

U yoki bu maqolning ko‘chma ma‘nosini aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to‘g‘ri anglamoq zarur. Xalq og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlarida, jumladan, maqollarda jamiyatdagi munosabatlar, holatlar va hodisalarni soddaroq, oddiyroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o‘z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar, (hayvonlar, o‘simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat mahsulotlari va hokazolardan) obrazli ustalik bilan foydalanadi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib, ular vositasidamuayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo‘lgan kishilarning obrazini gavdalantiradi. “Hayvon” arxisemali maqollarda tayanch komponentlarning ifoda semalari shaxstushunchasiga ishora qiladi va maqol semantikasidan majoziy ma‘no anglashadi. Bunday maqollarda insonlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatlariga, fazilat va nuqsonlariga hayvon nomlarining konnotativ ma‘nosiga ishora qilib turadi va bu birliklar ana shunday baho semasi bilan maqol matnining semantik strukturasi qatnashadi.

3.1. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida ko‘p ma’nolilik

Maqollarda ko‘p ma’nolilik hodisasi o‘zbek tilshunosligida ilk marta filologiya fanlari doktori B. Jo‘rayeva¹⁴³ tomonidan o‘rganilgan.

Monosemiya va polisemiya hodisasi birinchi galda so‘zlarga xos xususiyat sanaladi. Shu sababli juda ko‘p o‘rganilgan hodisa ham leksik polisemiya. Tadqiqotchilarning kuzatishlarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, o‘zbek tilidagi so‘zlarning 20 foizi, iboralarning esa 10-15 foizi ko‘p ma’nolidir. Demak, frazeologik polisemiyaning miqyosi leksik polisemiya darajasida emas. Shuningdek, maqollardagi ko‘p ma’nolilik hodisasi ham iboralaridagi singari behad ko‘p emas. Misollarning ko‘rsatishicha maqollarning ko‘pchiligi monosemantikdir. Polisemantiklik, asosan, o‘zbek tilida juda qadimdan va eng ko‘p ishlatiladigan maqollarga xos. Chunki maqollarni ishlatish imkoniyatining kengayishi ularning uzoq yillar iste’molda bo‘lishi va qo‘llanilish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tildagi so‘zlar bir va birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bir ma’nolilik hodisasi monosemiya, ko‘p ma’nolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, marmar, g‘oya, xulosa, taassurot kabi so‘zlar va ilm-fan sohalariga doir atamalar bir ma’noli so‘zlardir. O‘z va ko‘chma ma’nolari tufayli ikki yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar esa ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar deyiladi. Masalan: etak - choponning etagi, tog‘ning etagi. Tilshunoslikda so‘zning ko‘p ma’nolilik xususiyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘p ma’noli so‘zlar turli usullar vositasida ma’no ko‘chishi orqali o‘z ma’nosidan boshqa ma’nolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ko‘p ma’noli so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarga ham ega bo‘ladi. So‘zning nutqdan tashqarida, ya’ni tilda ifodalagan ma’nosi o‘z ma’nosi deb ataladi. Masalan, ko‘z, etak so‘zlari yakka holda ishlatilganda uning asl, ya’ni o‘z ma’nosi anglashiladi.

¹⁴³Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари.Фан, 2007.

“Qo‘y” LMGi asosida shakllangan maqollardagi ko‘p ma’nodlilik hodisasini kuzataylik:

Echkini o‘z oyog‘idan osadilar, qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar

1-ma’no. Har bir kishi o‘z qilgan qilmishi uchun oxiratda o‘zi javob beradi, qilgan savob, gunoh ishlari uchun yo mukofot yoki jazoga erishadi degan ma’noda qo‘llanadi. Ushbu maqol g‘ofil kimsalarni ogohlantirish maqsadida hayotiy tajribaga ega keksalar tomonidan yoshlarga nasihat sifatida qo‘llanadi.

2-ma’no. Biror tashvishga tushgan, o‘zgalar qilmishidan ko‘ngli og‘rigan, mushkul vaziyatga tushgan ko‘ngli sof kishilarni yupatish maqsadida qo‘llanadi. Ya’ni o‘z xotirjamliging haqida qayg‘ur, har bandaning jazosini Alloh o‘zi beradi, degan ma’no anglashiladi.

Bir qo‘chqorning boshi ketguncha , minglab qo‘yning boshi kesilar emish

1-ma’no. Oddiy mehnatkash xalq yoki ishchilar guruhiga qarata aytilgan maqol hisoblanadi. Bir rahbar lavozimidan ketgunga qadar qanchadan qancha ishchilar ishdan ketishi, tuhmatga duchor bo‘lishi ta’kidlanib ogohlantirilgan. Maqolda qo‘chqor – kuch-qudrat, ulug‘vorlik ramzi sifatida qo‘llangan.

2-ma’no. Ulug‘vorlik, kuch-qudrat har doim rahbar (qo‘chqor) tomonida ekanligi, uni yengish oson ish emasligini ta’kidlab ushbu maqolni qo‘llaydilar. Ya’ni “O‘ynashmagil arbob bilan arbob urar har bob bilan”. Bunday kimsalar bilan aytishish yaxshi oqibatga olib kelmasligi ta’kidlangan.

– *Bir qo‘chqorning boshi ketguncha , minglab qo‘yning boshi kesilar emish, deb ayt domlangga! –debdi.*

Bundan tashqari, ko‘p ma’nodlilik hodisasi boshqa tipdagi maqollarda ham kuzatiladi:

Egasini siylagan itiga suyak tashlar

1-ma’no: ba’zi pixini yorgan, xushomadgo’y, laganbardor kishi bevosita tegishli odamning o’ziga emas, uning xotin, bola-chaqasiga xushomad qilib, sovg’a-salomlar berib, shu yo’l bilan u odamning ko’nglini o’ziga moyillashtirmoqchi, o’z manfaatini ko’zlab iltimos qilib borgan ishini bitirmoqchi bo’ladi:

Nima qilsin? Quruqdan quruq boraversinmi? Har kim o’z obro’siga yarasha ish tutishi kerak. Gilam oborsa, chol nazariga ilmaydi. Magnitofon oboray desa chol odam uni nima qiladi... Shunday narsa oborsinki, Rahimovning qulog’iga yetsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti desin. Egasini siylasang, itiga suyak tashla, deb bekorga aytishmagan.

2-ma’no: agar kishi birovni sevsa, ardoqlasa, shu bois unga yaqin bo’lgan kishilarni ham izzat-ikrom qiladi, e’zozlaydi:

Egasini siylagan itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko’rar edilar .

Buzoqning yugurgani somonxonagacha.

1-ma’no: birovning imkoniyati, hol-qudratining cheklanganligini bildirish maqsadida aytiladi:

–“Buzoqning yugurgani somonxonagacha” deganlari kabi, sizning sohibqironligingizning qahramonligi ham qurolsiz dehqonlarning uyigacha .

2-ma’no: birovning hol-qudrati, imkoniyatini mensimay, yerga urib, kamsitish maqsadida aytiladi:

– Kim iqrор bo’ladi? Buzoqning yugurgani somonxonagacha! Hovuridan tushadi qoladi .

Uch ma’noli maqollar ham anchagina: Gapning tagini gap ochar.

1-ma’no: kishiga noma’lum bo’lib, sir bo’lib kelayotgan narsaning sababini, asl mohiyatini biror kishi ataylab aytib qo’ygan so’z ochadi.

2-ma’no: xuddi shunday narsaning sababini birov bilmasdan aytib qo‘ygan so‘z oshkor qiladi.

3-ma’no: kishi so‘rab-surishtirib gapning “tagini kovlab” o‘ziga mavhum bo‘lib kelgan narsaning tagiga etib oladi.

Maqollardagi ko‘p ma’nolilik haqida gapirilganda ulardagi idiomatik ma’no nazarda tutiladi. Ayni bir qurilishning erkin bog‘lanma holati esa e’tiborga olinmaydi. Bir maqolga birlashuvchi idiomatik ma’nolarning o‘zaro munosabati 2 xil:

1. Biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan idiomatik ma’nolar. Bunda ikkinchi ma’no birinchisidan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Bu ma’nolarning o‘zaro bog‘lanishi hech qanday izoh talab qilmaydi: *Singan qo‘lning og‘irligi bo‘yinga tushadi.*

1-ma’no: odatda, kishining qo‘li sinsa, uni bog‘lab bo‘yniga osib qo‘yadilar. Demak, qo‘lining og‘irligi o‘z bo‘yniga tushadi. Mazkur maqol bilan ma’jozan: “Birovning dardi uchun birov ko‘pda aziyat chekmaydi. Har kim o‘z dardining azobini, ziyon-zahmatini o‘zi tortadi”, –deyilmoqchi:

– *Shuni unutmangki, Abulbaraka, singan qo‘lning og‘irligi bo‘yinga tushadi. Mening bo‘ynim sening dardingni endi ko‘tarolmaydi.*

2-ma’no: oila a’zolari yoxud qarindosh-urug‘lardan birortasining boshiga falokat tushsa, qiynalsa, faqat uning o‘zigina emas, hammasi baravar azob chekadi:

– *Nodon o‘g‘il, singan qo‘lning og‘irligi bo‘yinga tushishini bilmaydi. O‘lib ham ketarman, izimga zor bo‘lib yurarsan.*

2. Biri ikkinchisidan o‘sib chiqmagan idiomatik ma’nolar. *To‘rga tushgan baliq qarmoqdan qo‘rqmas.*

Ushbu maqol “Hikmatnoma” da quyidagicha sharhlangan:

Biror ayb bilan qo‘lga tushib, qamalib chiqqan odam qattiqroq jazodan qo‘rqmaydi, ayb-gunohning battarroq‘ini qilaveradi.

Badiiy adabiyotlarda bu maqolning quyidagi ma’nosi ham uchraydi:

Ilgari qattiq qiyinchiliklar ko‘rgan odam uncha-muncha qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi, chidaydi, bardosh beradi:

Sodiqning sirli jinoyati boru, aytishga botinmayapti.

Dilovarxo ‘ja hazilga oldi:

– Sizning bir baloyingiz bor, mendan yashiryapsiz, mayli. Endi foydasi yo‘q, aytaversangiz ham bo‘lardi.

– To‘rga tushgan baliq qarmoqdan cho‘chimaydi, nimasini yashiraman. Tuhmat!

Maqolning birinchi ma’nosida salbiy munosabat ustun: ya’ni ko‘rib-ko‘rib ko‘zi qotgan kishining yomonroq ishlardan ham tap tortmasligi;

Maqolning ikkinchi ma’nosida esa ijobiy ottenka sezilib turadi: juda katta qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan odamning o‘tkinchi azoblarga chidamliligi, bardoshli bo‘lishi, bo‘lar-bo‘lmasga betoqatlik qilavermasligi ta’kidlangan.

Xulosa o‘rnida, ko‘p ma’nolilik maqollarda kam miqdorda kuzatiladi. Shulardan kelib chiqib yuqorida filologiya fanlari doktori B. Jo‘rayevaning “Maqolning yondosh hodisalarga munosabati” kitobidan foydalangan holda maqollarning ma’no qirralarini izohlashga harakat qildik. Aynan, “qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhiga oid maqollarda ko‘p ma’nolilik hodisasi juda oz miqdorda uchrashini kuzatdik.

3.2. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida zidlik

Cho‘lda qo‘yim bor dema, ko‘lda yerim bor dema;

Maqolda cho‘l-ko‘l so‘zlari o‘zaro zidlik hodisasini hosil qilgan. Chunki cho‘l-sahroda boqiladigan qo‘yga ishonib bo‘lmaydi – bo‘rigayem bo‘lishi yoki bo‘ron, suvsizlik kabi ofatlardan nobud bo‘lishi mumkin. Ko‘lda yering bo‘lgani bilan unga ekin ekib daromad olish ham dargumon. Chunki ekinni suv olib ketish ehtimoli bor. Mazkur maqol bilan biror narsaga chindan amin bo‘lmaganda, u xususida qat’iy qilib gapirmaslik uqtirilgan.

Eshakning boshi bo‘lguncha, qo‘yning quyrug‘i bo‘l.

Quyruq (1 ayn. dum 1. Quyruq'i uzun it. 2. ko'chma Doim birovga ergashib yuradigan, uning xizmatiga tayyor turadigan shaxs haqida;dum. Soli sovuq o'z quyruq'iga buyurdi: – Jumanboy, pastdan palos olib boring, chopping. 3 ayn. Dumba 4. Samolyot, kema va sh.k ning orqa qismi.

Eshakning boshi bo'lguncha, qo'yning oyog'i bo'l.

Eshak hayvonlar ichida qimmat va qiymat jihatdan eng past hisoblanadigan jonivor (“It izzatni bilmaydi, eshak – tarbiyani” maqol.). Shu tufayli baraka timsoli bo'lgan qo'yga qarama-qarshi qo'yiladi. Qo'y halollik ramzi, eshak esa aksincha. Majozan bu maqol, katta mansab, martabaga erishmoqchi bo'lgan kimsadan ko'ra halol, mehnatkash, kichik martabasidan baraka topgan, insonlarga foydasi tegadigan kishi afzal degan ma'nolarda qo'llanadi.

Echkining boshi bo'lguncha, qo'yning quyruq'i bo'l.

Ushbu maqolning antonimi: “Sigirning tuyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'l”.

Oq qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar, qora qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar.

Ushbu maqolda oq qo'y va qora qo'y birikmalari o'zaro antonimlik hodisasini yuzaga keltirgan. Sifat so'z turkumi o'zaro zidlik ma'nosida kelib, har qanday kishi o'z qilmishi uchun o'zi javob berishi nazarda tutilgan.

*–Agar biror kishi uning oldida kooperativdan so'z ochsa: “Echkining o'z oyog'idan, qo'yning ham o'z oyog'idan osadilar”. Senga ikki yo'l: bittasi o'ng, bittasi so'l. O'ng yo'l qolib chap yo'l bilan kooperativdan savdo qilsang, jazosini ko'ra berasan. Uning butun moli bizdan olingan nalogdan, deydi.*¹⁴⁴

– *Echkini o'z oyog'idan qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar.*¹⁴⁵

– *Qo'y o'z oyog'i bilan osiladi, echki o'z oyog'i bilan.*¹⁴⁶

¹⁴⁴ G'ulom G'. Tanlangan asarlar. 6-tom. Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1946, 57-b.

¹⁴⁵ Ahmad. S. Jimjitlik. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1989, 36-b.

¹⁴⁶ Muxtor O. Ayollar mamlakati va saltanati. Toshkent: Yosh gvardiya, 1997, 58-b.

– Mayli, kim nima desa - desin! Qo‘yniyam o‘z oyog‘idan osadi, echkiniyam.¹⁴⁷

– Mayli, singlim, qo‘yni ham echkini ham o‘z oyog‘idan osadilar. Bu ishingiz insofdan emas.¹⁴⁸

– Qo‘yni ham o‘z oyog‘idan osadilar, echkini ham, agar otam qarzdor bo‘lgan bo‘lsa, menga nima dahli bor? - dedi.¹⁴⁹

– Har qo‘yni o‘z oyog‘idan osadilar. U dunyoda sen o‘z savobu gunohing uchun ajr olgandek, meni ham qilib yurgan amallarimga qarab taqdirlaydi¹⁵⁰.

Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyoz,

Topgan qo‘y keltirar, topmagan –jo‘jaxo‘roz¹⁵¹.

Maqolda gul-piyoz, qo‘y-jo‘jaxo‘roz so‘zlari o‘zaro alohida-alohida antonimlikni hosil qilgan. Barcha ham o‘z imkoniyatidan kelib chiqib sarf-xarajat qilishi yoritilgan. Yuqoridagi maqolning varianti:

Topgan qo‘y keltirar, topmagan – jo‘jaxo‘roz¹⁵².

Boyning tuyachisi bo‘lsang quv bo‘lasan,

Qo‘ychisi bo‘lsang qul bo‘lasan.

Tuyachi va qo‘ychi so‘zlari kontekstual antonimlikni yuzaga keltirgan hisoblanadi. Shaxs otlari zidlik munosabatiga kirishgan.

Echkining boshi bo‘lguncha,

Qo‘yning quyruq‘i bo‘l.

Bosh va quyruq so‘zlari maqolda antonimlik hodisasini yuzag keltirib kelgan. Ot-ot komponentlar zidligi kuzatiladi.

Oshiq o‘ynagan ozar, to‘piq o‘ynagan to‘zar,

Hammadan ham qo‘y boqib, quyruq yegan o‘zar.

¹⁴⁷ Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. Toshkent: Sharq, 2012, 384- b.

¹⁴⁸ Shuhrat. Bir kecha fojiasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. 142-b.

¹⁴⁹ Ayniy S. Doxunda. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1956, 100-b.

¹⁵⁰ Hamdam U. Muvozanat. T.: Sharq, 2016. 47-b.

¹⁵¹ Шомаксудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 396-бет.

¹⁵² Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 423 б.

Oshiq 1 anat. Ayrim hayvonlarning orqa oyog‘i tizza bo‘g‘imidagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha. 2.Shunday suyakcha (odatda,qo‘y oshig‘i) vositasida o‘ynaladigan o‘yin¹⁵³. Maqolda oshiq so‘zining ikkinchi ma’nosi reallashgan.To‘piq – boldir suyagining pastki uchidagi yon tomonga turtib chiqqan do‘mboq qismi. **To‘piq o‘yini** – to‘piq suyagi o‘ynovchilardan biriga, so‘ralganda darhol ko‘rsatish sharti bilan, berib o‘ynaladigan pisandali o‘yin¹⁵⁴.

Qo‘y bir terining ichida,

Necha ozib necha semirar.

Ushbu maqolda“qo‘y” LMGining sabr-toqat, chidamlilik ramzi keltirilgan. Bu mushkul ahvolga tushib qolgan,moddiy va ma’naviy qiyinchiliklarga duchor bo‘lgan, og‘ir damlarni boshidan kechirayotgan kishilarga tasalli berilganda ular sabr-toqatga undalganda hayotdan umidsizlanmay istiqbol sari dadil qadam tashlashga da’vat etilgandaaytiladigan maqollardan biridir. Hayotda kishi yaxshi kunlarni ham, shuningdek, yomon kunlarni ham boshidan kechirishiga to‘g‘ri keladi. Aynan maqolning ikkinchi qismidagi ozish-semirish so‘zlari so‘z antonimini yuzaga keltirgan.

– *Bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha semiradi, deb qo‘shib qo‘ydi Qutbinisa xola... Gapning mazmuni shuki, sen o‘z ishingga qaytib borasan. Ishni yana boshidan boshlaysan. Senga maslahatim shu, bolam.*¹⁵⁵

– *Aybi yo‘q, jon bolam yaqindagina bo‘shagangiz, emiziklik hamma biladi. Bir terida qo‘y necha semirib, necha ozadi, jon omon bo‘lsin, dedi qaynona.*¹⁵⁶

– *Bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha marta semiradi, kishining boshiga yomon kunlar ham keladi, ko‘nish kerak bunga.*¹⁵⁷

– *Bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha marta semiradi*¹⁵⁸.

Topgan qo‘y keltirar,

¹⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981.170-б.

¹⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 241-б.

¹⁵⁵ Мирмуҳсин. Асарлар: 4 жилдлик. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 201-б.

¹⁵⁶ Shuhrat. Oltin zanglamas. TA. Uch jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970, 16-b.

¹⁵⁷ Ойбек. Асарлар 10 томлик. 3 том. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.- 16-б.

¹⁵⁸ Қодиров. П. Қора кўзлар. Т.: Шарқ, 2008. 140-б.

Topmagan jo'jaxyo'roz.

Bu maqol ham "e'tiborga molelik, arzirlik" semasini ifodalab kelgan. Boshqa hayvonlarga qaranganda qo'yning qimmati ancha yuqori. Sababi, "Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz", "Bor boricha yo'q holicha" maqollarigao'xshash hisoblanadi. Imkoniyati bo'lgan kishi aytilgan narsani muhayyo qila oladi, imkoniyati bo'lmagan kishi esa o'z sharoitidan kelib chiqib ish ko'radi. Shu tufayli ularni ranjitib, xafa qilib qo'yima, degan ma'noda qo'llanadi.

Yetim qo'zi asrasang, og'zi burning moy etar,

Yetim bolaasrasang, og'zi burning qon etar.

Ushbu maqol xalq kuzatuvini asosidagi xulosalarga tayangan. Yetim qo'zi asrab ro'zg'orning moyga to'lishi, yetim bolaning zahmati qiyin kelishi ta'kidlangan. Kontekstda moy va qon so'zlari o'zaro ziddlikni hosil qilib kelgan.

– *Hoji bobo o'z o'rniga o'tirib menga qaradi: – Hoy padarla'nat, muloyim shupurgi. "Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'g'lon asrasang og'zi-burning qon etar" deganlar. Sen haromi kelgandan buyon do'kon dastgohimdan baraka ko'tarilib, takyadan biror kun tinchim qolmadi*¹⁵⁹.

– *Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar, yetim o'g'il asrasang og'zi-burning qon etar*¹⁶⁰.

– *Donolar "Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning yog' etar, yetim bola asrasang og'zi-burning qon etar" – deb bekorga aytishmagan*¹⁶¹.

– *Yetim o'g'il asrasang og'zi-burning qon etar, yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy etar*¹⁶².

Yo'lbars yo'lbarsdir,

Hech qachon qo'zichoq bo'lmasdir.

¹⁵⁹ G'ulom. G'. Shum bola. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2016, 36-b.

¹⁶⁰ Ahmad. S. Jimjitlik. Toshkent: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1989, 20-b.

¹⁶¹ Shuhrat. Oltin zanglamas. TA. Uch jildlik. Ikkinchi jild. 54-b. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1970, 54-b.

¹⁶² Gulxaniy. Zarbulmasal va g'azallar. T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyoti. 1958, 39-b.

Qo‘zichoq ulug‘vorlik jihatdan yo‘lbarsga tenglasholmaydi. U yo‘lbarsning oldida ojiz hayvonga aylanadi. Qo‘zichoq endi tug‘ilgan, yosh himoyasiz jonivor bo‘ladi. Yo‘lbars esa quch-quvvatga to‘lgan, yirtqich hayvon bo‘lganligidan ular bir-biriga zid qo‘yiladi. Majozda ham qo‘rqoq odamlar hech qachon jasur insonlarga teng bo‘lolmaydi, degan ma’noda qo‘llaniladi.

– *Shu onda Asadbek yanglish fikr yuritayotgandi. Bu fikri o‘zi yaxshi ko‘rib aytib yuradigan “yo‘lbars-yo‘lbarsdir, hech qachon qo‘zichoq bo‘lmas”, degan gapiga zid edi.*¹⁶³

Kunda tulki olgan tozidan,

Qo‘y qo‘rigan sirtlon yaxshi.

Tozi –chopag‘on ov iti; uchqur arabiy ot¹⁶⁴. Maqolda oyoqlari ingichka, tumshug‘i uzun, xipcha, yugurik ov iti nazarda tutilgan¹⁶⁵. Sirtlon– yirtqichlar turkumi sirtlonlar oilasiga mansub hayvon. Kunda ochko‘zligi tufayli tulki ovlaydigan itdan ko‘ra qo‘y qo‘riqlagan sirtlon afzalligi ta’kidlangan. Hayotda vafodor, sodiq insonlar soxta insonlardan ustun turishi ifodalangan.

Qo‘y katta, qo‘zi kichik, echki sizga lozim emas.

Hayotda har narsadan noliydigan, ziqna insonlarga nisbatan bu maqol qo‘llanadi. Arzimas narsalardan kamchilik topadigan kishilar tanqid ostiga olingan. Bundaylarga qo‘y katta, qo‘zi kichik, echki esa kerak emas. Ushbu maqol ko‘proq majoziy ma’no kasb etadi.

Qassobga oq qo‘y ham bir,

Qora qo‘y ham bir.

Ushbu maqolda oq qo‘y va qora qo‘y birliklari o‘zaro antonimlik hodisasini yuzaga keltirgan.

Qutli qo‘noq kelsa qo‘y egiz tug‘ar,

Qutsiz kelsa qo‘yga qashqir chopar.

¹⁶³Malik.T. Shaytanat.4-kitob. T.:Nashriyot- matbaa konsernining bosh tahririyatii. 1997, 297-b.

¹⁶⁴Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 74-б.

¹⁶⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 74-б.

Qutli – 1 xayr-barakali. Oq oltinni tergan qo‘l Dongdor, qutli qo‘l bo‘ldi. Habibiy. Nurga to‘la erkin, ozod Qutli uying muborak. G‘.G‘ulom. 2. Qutlug‘. Uning egnida qadimona tikilgan keng, uzun oq shohi ko‘ylak (qutli kunda onasi Burma ko‘ylak kiyishni man etgan), boshida baytlar yozilgan kata sanama ro‘mol, oyoqlarida ipakday mayin guldor mahsi. Oybek. Tanlangan asarlar¹⁶⁶. Maqolda qutli-qutsiz so‘zlari antonimlik hodisasini yuzaga keltirgan.

Tindim tunda, tinmadim kunduzi, bo‘ldi qo‘y telpagim qunduzi.

Maqolda mehnat qilish, mehnatkashlik ulug‘langan. Halol mehnat orqasidan davlatga erishib yurish insonga huzur bag‘ishlashi uqtirilgan. Tun-kun so‘zlari o‘zaro zidlikni yuzga keltirgan.

3.3. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida sinonimlik

O‘zbek tilshunosligida iboralarda sinonimlik hodisasi professor Shavkat Rahmatullayev tomonidan, maqollarda sinonimlik hodisasi filologiya fanlari doktori Bibish Jo‘rayeva¹⁶⁷ tomonidan o‘rganilgan.

Sinonimlar (yun. synonymos – bir nomli) – bir umumiy ma’noga ega bo‘lgan (denotativ ma’nosi bir xil), qo‘shimcha (konnotativ) ma’nosi (ekspressiv, uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari) bilan o‘zaro farqlanadigan til birliklari – so‘z, ibora, sintaktik birlik va boshqalar. Masalan, boshqatdan, qayta, qaytadan, yangidan, yana, takror so‘zlari sinonim so‘zlar hisoblanadi.

Til birliklari bir xil ma’noga ega bo‘lish hodisasi sinonimiya deyiladi. Bu hodisa qanday til birliklariga xosligiga qarab, lugaviy (leksik) sinonimiya, frazeologik sinonimiya, sintaktik sinonimiya kabilarga bo‘linadi. O‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlar guruhi sinonimlar qatori deyiladi. Sinonimlar qatori ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topadi. Masalan, buloq – chashma sinonimlar qatori ikki so‘zdan, yuz– aft– bashara – bet sinonimlar qatori esa ko‘p

¹⁶⁶Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 391-б.

¹⁶⁷Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари.Фан, 2007, 37-.

soʻzlardan tuzilgan. Koʻp maʼnoli soʻzlar muayyan maʼnosi yoki maʼnolari bilan bir yoki birdan ortiq sinonimlar qatoriga kirishi mumkin. Masalan, bitirmoq soʻzi bir maʼnosi bilan tugatmoq, tugallamoq, tamomlamoq soʻzlari qatoriga, boshqa maʼnosi bilan ado qilmoq, yoʻqotmoq, yoʻq qilmoq soʻzlari qatoriga kiradi.

Sinonimlar qatoridagi bir soʻz bosh soʻz (asosiy soʻz) hisoblanadi. Bosh soʻz, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional boʻyoq, uslubga koʻra betarafligi va sh. k. xususiyatlari bilan shu qatordagi boshqa soʻzlardan farqlanadi hamda xuddi shu xususiyatlariga koʻra tilda boshqalariga nisbatan keng qoʻllanadi. Masalan, chiroyli, goʻzal, husnli, husndor, xushroʻy, koʻhli, zebo, suluv, sohibjamol... Sinonimlar qatorida chiroyli soʻzi shunday belgilarga ega va bosh soʻz hisoblanadi. Qolgan soʻzlar esa har biri oʻziga xos belgi-xususiyati bilan boshqalaridan farqlanadi: goʻzal soʻzi belgini kuchli (yuqori) daraja bilan ifodalaydi; barno, zebo soʻzlari koʻproq kitobiy uslubga ega, suluv soʻzi esa nisbatan kam qoʻllanadi va h.k. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgixususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Olimlar sinonim maqollarni quyidagi bandlar boʻyicha izohlashadi:

1. Sinonim maqollarning leksik tarkibi.
2. Sinonim maqollar asosida yotgan obraz.
3. Sinonim maqollarning maʼnoda farqlanishi.
4. Sinonim maqollarning grammatik tabiati.
5. Sinonim maqollarning obrazlilik darajasi.
6. Sinonim maqollarda uslubiy boʻyoq.
7. Sinonim maqollarning zamonaviyligi.

Sinonim iboralar tarkibidagi komponentlar miqdori aksariyat hollarda bir-biriga teng keladi. Sinonim maqollarda esa, aksincha, ular tarkibida

qatnashuvchi komponentlarning miqdori juda kam hollardagina o‘zaro teng keladi¹⁶⁸ va bular:

1. 2–3 maqoldan tashkil topgan sinonimik uyalarda
2. Komponentlar miqdori 3-4 so‘zdan iborat bo‘lgan maqollarda ko‘proq uchraydi.

Sinonim maqollar asosida yotgan obraz

Bir uyaga birlashuvchi sinonim maqollar ular asosida yotgan obraz nuqtayi nazaridan ikki xil:

1. Asosida boshqa-boshqa obraz yotuvchi sinonim maqollar.
2. Asosida ayni obraz yotuvchi sinonim maqollar.

Asosida boshqa-boshqa obraz yotuvchi sinonim maqollar

Ikki maqol qatnashadigan sinonimik uya

Echkining boshi bo‘lguncha, *qo‘y*ning quyruq‘i bo‘l.

Sigirning tuyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘l.

Uch maqol qatnashadigan sinonimik uya

Bir qo‘chqorning boshi ketguncha, necha to‘qlining boshini yeydi.

Bitta qovun pishgunch, yuzta sapcha uzilib tushadi.

Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi.

Asosida ayni obraz yotuvchi sinonim maqollar

Uch maqol qatnashadigan sinonimik uya

Bir *qo‘yga* pichoq, ikki *qo‘yga* tayoq.

Yolg‘iz ot chiqarmas yaxshi ot.

Ayрилganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri.

Sinonim maqollarning ma‘no qirrasida farqlanishi

Sinonim maqollarda umumiy ma‘nodan tashqari o‘ziga xos ma‘no ham yashirin bo‘ladi. Masalan,

Bo‘ri bor bo‘lsin desang, *qo‘y* but bo‘lmas.

Tulkiga rahm qilsang, tovug‘ingdan ajraysan.

¹⁶⁸Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари.Фан, 2007, 37-.

Ushbu maqollar sinonimlik hosil qilgani bilan ma'no qirrasida farq qiladi: birinchi maqolda vahshiylik semasi, ikkinchi maqolda ayyorlik semasi ustunlik qiladi.

Ammo ba'zi sinonim maqollar ma'no qirradi jihatidan deyarli farq qilmaydi:

Echkining boshi bo'lguncha qo'yning quyruqi bo'l.

Sigirning tuyuqi bo'lguncha, buzoqning boshi bo'l.

Bu uyadagi sinonimlar teng ma'no va qurilishga ega bo'lib, faqat asosida yotgan obraz va nutqda oz-ko'p ishlatilishi jihatidan farq qiladi.

Sinonim maqollarning grammatik qurilishi

Sinonim maqollar grammatik qurilish jihatdan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. grammatik qurilish deganda, maqollarning tuzilishi, ulardagi gap bo'laklarining joylashish kabilari nazarda tutiladi. Shunga ko'ra ular ikki guruhga bo'linadi:

1. Grammatik qurilishi bir xil bo'lgan sinonim maqollar.
2. Grammatik qurilishi har xil bo'lgan sinonim maqollar.

Grammatik qurilishi bir xil bo'lgan sinonim maqollar

Bunda bir uyaga birlashuvchi maqollarning barchasi bir xil Grammatik qurilishga ega bo'ladi:

Bedov boylovda semirar, qo'y-qo'zi yaylovda. Ot boylovda semirar, Qo'y yaylovda. (*bedov forscha – tez yuguradigan, chopqir, chopog'on; ildam, tez harakat qilish*¹⁶⁹, bu atama ko'proq otga nisbatan ishlatiladi: o'ynoqi, uchqur ot kabi).

O'zi o'lgan qo'y qurbonlikka yaramas.

Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas.

Yuqoridagi maqollarning barchasi tuzilishiga ko'ra soda gap qurilishiga teng keladi va gap bo'laklarining joylashuvi ham ham bir xil. Xuddi shu holatni qo'shma gap qurilishidagi maqollarda ham kuzatish mumkin:

Echkining boshi bo'lguncha, qo'yning quyruqi bo'l.

¹⁶⁹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981. 74-бет.

Sigirning tuyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘l.

Grammatik qurilishi har xil bo‘lgan sinonim maqollar

Bunday maqollar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ushbu turdagi maqollarda sodda hamda qo‘shma gap aralash holda qo‘llanadi:

1) Bir qo‘yga pichoq, ikki qo‘yga tayoq.

Yolg‘iz ot chiqarmas yaxshi ot.

Ayрилganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri.

2) Bir qo‘chqorning shoxi singuncha, yuzta qo‘yning boshi ketadi.

Bitta qovun pishguncha, yuzta sapcha uzilib ketadi.

Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi¹⁷⁰.

3) Bo‘ri bor bo‘lsin desang, qo‘y but bo‘lmas.

Erkiga qo‘ysang xo‘jani, yotib ichar go‘jani.

G‘aribni ko‘rsang – ber, xo‘jani ko‘rsang – ur!

Ursang, boyga ham kaltak o‘tadi, yulqisang, yoqasi ham yirtiladi

4) Keksa qassob tushiga tunda mingta qo‘y kirar.

Har kimning bir o‘yi bor, xayolida ming qo‘yi bor.

Ming qo‘ylini qo‘yi qoldi, bir qo‘ylining qo‘yi ketdi.

Kambag‘alni tuya ustida qo‘y qopar.

5) Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur,

Og‘a bo‘lar yigitning peshonasi keng bo‘lur.

Bo‘ladigan bola boshidan bilinadi.

–*Anda Ko‘rqush aydi: “Rost aytursan: “Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, og‘a bo‘lar yigitning peshonasi keng bo‘lur”*¹⁷¹.

6) Torta tortayesang toy orttirasan, qo‘ya qo‘ya yesang qo‘y ortirasan.

Qirib yesang qirq kunga yetadi, O‘yib yesang o‘n kunga yetadi.

Tovug‘ini yesang, bir yeysan, Tuxumini yesang ming yeysan.

Sog‘ib ichsang ming kunlik, so‘yib yesang bir kunlik.

Kallaklab boqsang qirq yilga yetadi, Ko‘marib yoqsang – bir yilga.

¹⁷⁰Шомаксудов.Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. – Т., 1990, 48-б.

¹⁷¹ Gulxaniy. Zarbulmasal va g‘azallar. T.:O‘zSSR Davlat badiiy adabiyoti. 1958, 22-b.

Saqlasang, ming kunlik, saqlamasang, bir kunlik¹⁷².

7) Topgan qo'y keltirar, topmagan jo'jaxyo'roz.

Topgan gul keltirar, topmagan bir bog' piyoz.

Bor boricha yo'q holicha.

8) Kambag'alning yolg'iz qo'zisiga qashqir tegar.

Ming qo'ylining qo'yi qoldi, bir qo'yining qo'yi ketdi.

Sinonim maqollarning obrazlilik darajasi

Sinonimik maqollarning ko'pchiligida obrazlilik darajasi, asosan, bir xil ba'zan farqli:

Bir qo'yga pichoq, ikki qo'yga tayoq.

Yolg'iz ot chiqarmas yaxshi ot.

Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri.

Uchinchi maqolda obrazlilik darajasi biroz kuchli ifodalangan.

Sinonim maqollarda uslubiy bo'yoq

O'zi o'lgan qo'y qurbonlikka yaramas.

Itдан bo'lgan qurbonlikka yaramas.

Birinchi maqolda uslubiy bo'yoq deyarli neytral holatda. Ammo ikkinchi maqolda salbiy bo'yoq ustunlik qiladi.

Sinonim maqollarda zamonaviylik

Sinonim maqollarning ko'pchiligi zamonaviy qatlamga kiradi va ularning ma'nosi o'quvchi tomonidan osonlik bilan o'zlashtiriladi¹⁷³. Lekin maqollar tarkibida shunday so'zlar borki, ularning anglashilishi biroz qiyin kechadi:

1) maqollar tarkibidagi so'zlardan ba'zisi eskirib qolgan bo'ladi. Eskirish sabablari esa quyidagicha:

a) so'z ifodalaydigan predmet hayotda yo'qolgan va shu bilan birga so'zning o'zi ham asta-sekin eskirib, muomala-munosabatdan chiqqan bo'ladi:

Qo'y bo'lmasa qiy bo'lmas.

¹⁷² Шомақсудов. Ш., Шорахмедов. Ш. Ҳикматнома. Т., 1990, 505-бет.

¹⁷³ Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. Фан, 2007, 44-.

Qiy – dumba. Qo‘yning qiyiga nisabatan hozirgi kunda dumba so‘zi keng ishlatiladi. Qiy so‘zi tushunarlik nuqtayi nazaridan ancha eskirgan hisoblanadi. Shuning uchun maqol ushbu qatlamga mansub bo‘ladi. So‘zlashuvda va xalq orasida dumba so‘zi iste’molda ko‘proq qo‘llanadi.

III Bob yuzasidan xulosa

Xulosa o‘rnida, ko‘p ma’nolilik o‘zbek xalq maqollarida kam miqdorda kuzatiladi. Shulardan kelib chiqib yuqorida filologiya fanlari doktori B. Jo‘rayevaning “Maqolning yondosh hodisalarga munosabati” kitobidan foydalangan holda maqollarning ma’no qirralarini izohlashga harakat qildik. Aynan, “qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhiga oid maqollarda ko‘p ma’nolilik hodisasi juda oz miqdorda uchrashini guvohi bo‘ldik. Zidlik hodisasi barcha maqollar singari “qo‘y” LMGi qatnashgan xalq maqollarida ham anchagina o‘rinni tashkil etadi. Sinonimlik hodisasi badiiy asardan olingan parchalar orqali izolandi.

XULOSA

Xalq o'tmishi milliy qadriyatlar, madaniyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. O'ziga xos tarixiy taraqqiyoti, madaniy rivoji, etnografik xususiyatlariga ega bo'lgan har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, madaniyati va etnik qatlamiga doir ma'lumotlar xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, maqollarda o'z ifodasini topadi. Maqollar eng qadimgi davrdan hozirga qadar yashab kelayotgan og'zaki ijod namunalari bo'lib, milliy qadriyatlarga doir muhim ma'lumotlarni xalq dunyoqarashi, urf-odati, an'analarini, turmush tarziga doir ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Maqollar madaniyat elementlarini aks ettirgan birliklardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy-madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi. Maqol lingvokulturologiya birligi sifatida til va madaniyat munosabatini, madaniy qarashlarni ifodalashga ximat qiladi.

Millatimizning butun hayotini qamrab olgan ulkan merosi, shubhasiz, xalq og'zaki ijodi namunalaridir. Xalq og'zaki ijodining salmoqli qismi esa maqollardan tashkil topgan. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan o'zbek xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosati va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaralitib turgan, eskilarining – jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Maqollar mavzu jihatidan xilma-xil bo'lib,

olimlar ularni mavzusiga, tashiydigan ma'nosiga ko'ra tadqiq etgan va kitob holida nashr ettirgan.

Maqollar xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatdan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi. Jumladan, zoonim komponentli maqollar tadqiqi milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda zoonimlar va ular asosidagi kommunikativ, funksional-semantik, emotsional-ekspressiv xususiyatlarni atroflicha tahlil qilishni taqozo qiladi.

O'zbek xalq maqollarida hayvon nomlarining turli xil ma'nolarda qo'llanilishining, boshqacha qilib aytganda, ko'chma ma'nolar hosil qilishining o'z ichki yo'llari, qonunlari mavjuddir. Jumladan, M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "qo'y" LMGi bilan bog'liq 80 ga yaqin birliklarning qo'llanishi ham hayvon nomlari turlicha ma'no ifodalab kelishining ayni tasdig'idir.

"Qo'y" LMGi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarida hayvon nomi tasviriylilikni, obrazlilikni ta'minlovchi vosita sifatida nisbatlash, o'xshatish, ma'no ko'chirish orqali kishilarning ko'rinishi, xatti-harakati, xarakter-xususiyati, nutqi kabilarni ifodalashga xizmat qiladi. Ularning leksik hamda semantik xusuiyatlarini tadqiqot ishi davomida tahlil qilishga harakat qildik.

Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik bo'yicha tadqiqot olib borgan olim V.A. Maslova metafora hodisasiga quyidagicha qaraydi: metafora o'zida fundamental madaniyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan bo'ladi¹⁷⁴. Olimlarning ta'kidlashicha, metafora tilning asosiy birliklari hisoblangan maqola, ibora vao'xshatishlar bilan bir qatorga qo'yiladi.

Dissrtatsiyada metafora hodisasi nazariy va lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan. Ularda, asosan, so'z-metaforalar haqida so'z yuritilgan. Jumladan, olim Durdon Xudoyberganova o'z asarida metafora to'g'risida quyidagicha fikr yuritadi: metafora qo'llangan matnlar shuni ko'rsatadiki, ularda, nafaqat,

¹⁷⁴ Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб.пособие.–Москва:Academia, 2001. 91 С.

tushuncha, balki muayyan vaziyat ifodasi ham metaforalarga asoslanishi mumkin. Shu boisdan, metaforalarni soʻz, soʻz birikmasi, gap, matn shaklidagi metaforalar sifatida oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot ishida metonimiya hodisa oʻzaro bogʻliklik, aloqadorlik asosida maʼno koʻchishimisollar yordamida isbotlangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning aytganlaridek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va sanʼatimiz ham albatta boʻladi”.¹⁷⁵ Zero, Oʻz tarixini chuqur bilgan avlod har doim kimning farzandi ekanligini unutmaydi, gʻurur bilan oʻz ajdodlaridan faxrlanib boshini baland tutib yuradi. Xalq ogʻzaki ijodi ham bevosita xalq tarixi bilan bogʻliq. Xalq ogʻzaki ijodiga mansub maqollarni oʻrganish esa har bir avlodning burchidir.

Dissertatsiya kelgusida yangi lugʻat, risola, kitob, ensiklopediya, izohli lugʻat hamda toʻplamlardan oʻrin olishiga umid qilamiz.

¹⁷⁵Sh.M.Mirziyoyev. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan oʻtkazgan uchrashuvida soʻzlagan nutqidan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Siyosiy adabiyot:

1. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokrati O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O‘zbekiston, 2016, 18- b.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar.

2. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 286 b.
3. Imomov K. Maqollar. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: 1980, 108-115-betlar.
4. Isamuhamedova S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida sinonimlar. AKD. – Toshkent: 1963. -18 b.
5. Xolmanova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2016, – 205 bet.
6. Saidov. Y., Muqimova G. “Devonu lug‘otit turk”dagi xalq maqollari (lug‘at-ma’lumotnoma). – B., 2015, – 99 b.
7. Salomov G’. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. - 384 b.
8. Salomov G’. Tarjima nazariyasiasoslari. –Toshkent:O‘qituvchi, 1983.- 230b.
9. Samadov Q. Oybekning til mahorati. –Toshkent, 1981. - 104 b.
10. Sodiqova M. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. - 96 b.
11. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. Nega shunday deymiz. – Toshkent, 1988, - 352 b.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990, – 528 b.
13. Shorahmedov Sh. Maqollarning paydo bo‘lishiga doir. “O‘TA”. – Toshkent, 1971, 4-son, 31-34- betlar.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 1-jild. A-R. –Moskva: Rus tili, 1981. – 631 b.

15. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 2-jild. A-R. Moskva: Rus tili. 1981, 601 – bet.
16. O‘zbek xalq maqollari. 1-jild. A-O. – Toshkent: Fan, 1987. – 368 b.
17. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. Ijild. T. 1960.
18. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. II jild. T. 1961.
19. Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. III jild. T. 1963.
20. Hakimov M. Yozuvchi vaxalq tili. – Toshkent: Fan, 1971. – 176 b.

III. Badiiy adabiyotlar

21. Ayniy Sadriddin. Sudxo‘rning o‘limi. – Toshkent. “O‘qituvchi”, 1973. – 126 b.
22. Ayniy Sadriddin. Doxunda. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1956. – 376 b.
23. Ayniy Sadriddin. Tanlangan asarlar. III jild. Qullar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
24. Ayniy Sadriddin. Tanlangan asarlar. IV jild. Qullar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
25. Ayniy Sadriddin. Tanlangan asarlar. IV jild. Qullar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
26. Ahmad Said. Jimjitlik. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 320 b.
27. O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi. T.: Sharq, 2012, – 623 b.
28. Malik Tohir. Shaytanat. Uchinchi kitob. – Toshkent, Nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1997. – 384 b.
29. Mirmuhsin. Asarlar: 4 jildlik. –Toshkent, Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
30. Murodov T. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent, 1994.
31. Murodov T. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. – Toshkent, 2004.
32. Muxtorov O. Ayollar mamlakati va saltanati. – Toshkent, “Yosh

gvardiya” nashriyoti, 1997.

33. Muxtorov O. Egilgan bosh. – Toshkent, “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1989. – 256 b.

34. Oybek. Asarlar 10tomlik. 3 tom. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.

35. P. Qodirov. Qorako‘zlar. Toshkent, SHarq, 2008.

36. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. – Toshkent, 1985.

37. Shuhrat. Oltin zanglamas. TA. Uch jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – 408 b.

38. Shuhrat. Bir kecha fojiasi. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 170 b.

39. U.Hamdani. Muvozanat. Toshkent, Sharq, 2016, –147 b.

40. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017. – 151 bet.

4. Internet saytlari.

41.www.Ziyo.uz.com.

42. www.xurshid.davron.uz.

43. www.kitoblar.kom.

44. www.nukf.intal.Uz.

45.www.ziyouz.com.

Magistratura bo‘limi 5A 120 102 – Lingvistika (o‘zbek tili)
mutaxassisligi II bosqich magistranti Sharipova Maftunaning “O‘zbek
tilshunosligida «qo‘y» lug‘aviy-ma‘naviy guruhi asosida shakllangan
maqollarning leksik-semantik xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqot ishiga
ilmiy rahbar

XULOSASI

Maqollar fikrni lo‘nda, aniq va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham V.G.Belinskiy xalq maqol va matallarini “poeziyaning mohiyati” deb hisoblagan edi. Binobarin, xalqning asriy tajribalarida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlarning hamma vaqt nutqimizga mazmuniy salmoq, o‘ziga xos ta’sirchanlik baxsh etishi tabiiy bir holdir. Boshqa xalqlarning maqollarida bo‘lgani kabi o‘zbek xalq maqollarida ham o‘zbek xalqining turmush tarzi, ma‘naviy qiyofasi, dunyoqarashi, mehnatga, insonga, hayotga, tabiatga munosabati to‘liq o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, bu xususiyat hayvon nomlari asosida shakllangan xalq maqollarida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. “Tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili” deb nomlanuvchi I bobda jahon tilshunosligida, turkiy tilshunoslikda hamda o‘zbek tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahliliga e’tibor qaratilgan. Olimlar tomonidan yaratilgan lug‘at, tavsiflar chuqur kuzatilgan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “qo‘y” LMGiga oid fikrlar misollar asosida yoritilgani ahamiyatlidir.

II bobda “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining leksik xususiyatlari” yoritilgan. Ya’ni “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarida metafora, metonimiya, variantlilik kabi hodisalar har bir maqol misolida alohida-alohida yoritilgan, tahlil qilingan. Xususan, variantlilik hodisasi turli xalqlar maqollari bilan qiyosalangan holda o‘rganilgan. Maqollar manbasi aniq va asosli tarzda izohlangan.

“Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari” deb nomlanuvchi III bobda magistrant semantik xususiyatga mansub ko‘p ma’nolilik, sinonimiya va antonimiya hodisalariga o‘z e’tiborini qaratgan va “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollaridan ushbu xususiyatlarni izlab tophan, tahlilga tortgan. Ish yakunida dissertatsiya uchun to‘g‘ri umumiy xulosa chiqarilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati tartib bilan joylashtirilgan. Mazkur ish natijalari o‘zbek tilshunosligida maqollarning uslubiy vazifalarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshiriladigan izlanishlarga ilmiy materiallar bera olishi bilan nazariy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, magistrant ishni ishga doir ilmiy va badiiy manbalardan to‘liq foydalangan holda ixcham, ravon usulda bayon etgan. Jahonda kechayotgan ilmiy jarayonlardan xabardor bo‘lgan holda uni milliy tilshunosligimiz bilan qiyoslagan. Har bir bob uchun alohida tadqiqot ishlarini chuqur o‘rgangan. Badiiy adabiyot namunalaridan parchalar orqali ishni dalillab borgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham o‘z o‘rnida foydalangan. Kelajakda ushbu dissertatsiya “Hayvon nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollari” nomli ko‘p jildli risolaga munosib qism sifatida o‘rin olishini ta’kidlash mumkin.

Ilmiy rahbar:

***f.f.d* B.M. Jo‘rayeva**

**Sharipova Maftuna Jamshid qizining “O‘zbek tilshunosligida “qo‘y”
lug‘aviy-ma‘noviy guruhi asosida shakllangan maqollarning leksik -
semantik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga rasmiy
hakam tomonidan yozilgan ichki**

TAQRIZ

Sharqning donishmand shoirlaridan biri Sa‘diy Sheroziy yozadi: “Ikki kishi umrini behuda o‘tkazibdur. Biri mol to‘plab: undan o‘zi ham, boshqalar ham manfaat ko‘rmagan odam; ikkinchisi ilm o‘rgangan: ilmidan o‘zi ham, boshqalar ham manfaat ko‘rmagan kishi”. O‘zbek tilshunosligida birinchi marta “qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining leksik-semantik tabiatini monografik planda tadqiq etishga qaratilgan ushbu dissertatsiya tadqiqotchining o‘zi uchun ham, o‘zbek tilshunosligi uchun ham manfaatli tadqiqot ekanligi bilan e‘tiborli. Shu ma’noda tadqiqot ishi o‘zbek tilshunosligidagi yana bir kemtiklikni to‘ldirish barobarida dolzarblik kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiyani umumiy va xususiy tomonlarini o‘rganish bo‘yicha ikki ilmiy yo‘nalish mavjud ekanligi ma’lum. Bir guruh tilshunoslar barcha turg‘un birikmalarni, shu jumladan, maqollarni ham frazeologiya doirasida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydilar va bu yo‘nalish tarafdorlari frazeologiyani “keng ma’noda” tushunuvchilar deb yuritiladi. Frazeologiyani “tor ma’noda” tushunuvchilar esa ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan, ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi turg‘un birikmalarni o‘rganib, maqol, matal va boshqa turg‘un birikmalarni alohida o‘rganish zarurligini uqtiradilar. Demak, tilshunoslikda turg‘un birikmalar va unga yondosh hodisalarning o‘rganish obyekti, chegarasi, til birligi sifatidagi xususiyati haqida tilshunoslar bir to‘xtamga kelmaganlar.

Tadqiq etilayotgan mazkur magistrlik dissertatsiyasi zoonim komponentli maqollarni, bu borada olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil qilib, bahs-munozaraga sabab bo‘layotgan o‘rinlarga oydinlik kiritish, shu asosda hayvon nomlari, aynan, “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollarini o‘rganish borasida

ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollarining leksik hamda semantik qatlamlarining o‘rganilganligi ham mazkur dissertatsiyaning ilmiy hamda amaliy ahamiyatini oshiradi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili” deb nomlanadi. Bob tarkibidan: jahon tilshunosligida, turkiy tilshunoslikda, o‘zbek tilshunosligida zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili, “Devonu lug‘otit turk”da “qo‘y” LMGiga aloqador birliklar tahlili nomli masalalar o‘rin olgan. Bu borada bajarilgan ilmiy ishlar magistrant tomonidan chuqur kuzatilgan.

Tadqiqotning asosiy qismi II va III boblarda yoritilgan. Maqollar izohi va badiiy asarlardan olingan parchalar ishning dalillanishiga xizmat qilgan. Ish so‘nggi xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya qunt bilan yozilgan mo‘jaz ilmiy tadqiqot namunasi sifatida barcha me‘yorlarga javob beradi. Tadqiqot ishini namunali tarzda himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

BuxDU professori, f.f.d., Y.Saidov

**Sharipova Maftuna Jamshid qizining “O‘zbek tilshunosligida “qo‘y”
lug‘aviy-ma‘noviy guruhi asosida shakllangan maqollarning leksik-
semantik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga rasmiy
hakam tomonidan yozilgan tashqi**

TAQRIZ

Jahon tilshunosligida maqollarning lisoniy mavqeyi, shakllanish manbalari, etimologiyasini ochib berish, ularning muayyan bir xalq hayoti, dunyoqarashi, an‘analari, urf-odatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatish va bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ayni paytda mazkur lisoniy birliklarni kognitiv, psixologik, lingvomadaniy, lingvopragmatik aspektlarda tadqiq etish, ularning struktur-semantik, badiiy-estetik jihatlarini o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar dolzarbligini saqlab kelmoqda. Biroq hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida “qo‘y” LMGi asosida shakllangan xalq maqollari alohida tadqiq obyekti sifatida olingan emas. Shu sababli, ushbu dissertatsiya amaliy ahamiyatga ega. Dissertatsiyaning birinchi bobi “Tilshunoslikda zoonimlar tadqiqiga oid bajarilgan ilmiy ishlar tahlili” deb nomlanadi. Bob tarkibidan: jahon tilshunosligida, turkiy tilshunoslikda, o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan zoonimlar tadqiqiga oid ilmiy ishlar tahlili, “Devonu lug‘otit turk”da “qo‘y” LMGiga aloqador birliklar tahlili kabi masalalar o‘rin olgan. Bu borada bajarilgan ilmiy ishlar magistrant tomonidan chuqur kuzatilgan.

Tadqiqotning asosiy qismi II va III boblarda yoritilgan. Maqollar izohi va badiiy asarlardan olingan parchalar ishning dalillanishiga xizmat qilgan. Ish xulosa va adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot namunasi sifatida barcha me‘yorlarga javob beradi. Tadqiqot ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

BDTI dotsenti, f.f.n., D.Abdullayeva

**XALQARO MIQYOSDA E'LOH QILINGAN NAMUNALI ILMIY
MAQOLALARGA**

I L O V A



CHAIRMAN OF PUBLIC FUND «MOSTY SOGLASIYA»

CHAIRMAN OF THE ASSOCIATION OF
LEGAL ENTITIES «NATIONAL MOVEMENT «BOBEK»



KH.B. MASLOV

E.M. ABIYEV

KAZAKHSTAN, NUR-SULTAN, 12 DECEMBER 2019

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI KORPUSI INTERFEYSI TAVSIFI

Sharipova Maftuna Jamshidovna

Buxoro davlat universiteti II bosqich magistranti (Lingvistika (o‘zbek tili)

maftunasharipova66@gmail.com

Jo‘rayeva Bibish Muhsinovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

hamroyeva81@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollari korpusi interfeysi tavsiflangan bo‘lib, korpus mundarijasi rasm, belgi hamda logotip orqali tasvirlangan. Turli hajmdagi til korpuslarining web-manzili – link ko‘rsatilgan. Bugungi kunda yangi soha – korpus lingvistikasi fani atamaları izoh berilgan.

Kalit so‘zlar: korpus, interfeys, maqol, logotip, link.

Bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo‘lmas ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishga xizmat qiladi” [1].

Til korpusi – til birliklarining maqsadli tarzda yig‘ilgan jamlanmasi. Korpus yaratilishi, taraqqiy etishi, til korpuslari asri kirib kelishi bilan lug‘atshunoslarda so‘zlarning qo‘llanilish holatlariga doir juda katta matnlar to‘plami bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ldi [2, 49]. Til korpusi o‘rganilayotgan tilni keng, to‘liq, obyektiv ko‘rsatish imkoniyati bilan turli axborot banklaridan afzal. U tilshunoslik yo‘nalishidagi turli tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini o‘taydi [3,43].

Korpusga qo‘yiladigan talablardan biri uning interfeysga egaligidir.

Korpusning bosh oynasi – yuzi uning interfeysi. Korpus interfeysi – bu muallifning estetik didi va dunyoqarashiga asoslanib tuziladigan ma'lumotlar jamlanmasining birinchi sahifasi, ya'ni mundarijasi sanaladi.

Jahon tilshunoslik maktablaridan andoza olgan holda korpusning yangicha ko'rinishini interfeysimizda mujassamlashtirdik. (1-rasm)

1-rasmda korpus interfeysi tasviri berilgan. Interfeysning chap burchagida “O‘zbek xalq maqollari korpusi” so‘zining abbreviaturasi logotip sifatida olingan – O‘XMK. Yuqori qismda *bosh sahifa* oynasi joylashgan. Ushbu oyna boshqa ma'lumotlar bazasidan foydalanib bo‘lgach, yana avvalgi holatga qaytishni ta'minlaydi.

Korpus haqida oynasi ushbu korpus haqida, ya'ni unda qanday ma'lumotlar saqlanishi va imkoniyatlari to'g'risida ko'rsatma beradi.

Qo'llanma oynasidan qidiruv tizimini amalga oshirishga doir ko'rsatmalar, bazadan foydalanish qoidalari, yo'riqnoma o'rin egallagan. Interfeysning o'ng tomonidagi bayroqlar baza ma'lumotlarini 3 tilda o'qishga xizmat qiladi: o'zbek, rus, ingliz.

Qidiruv oynasi orqali foydalanuvchi o'zi istagan maqolni badiiy asar, maqola (ilmiy, publististik va hk.) gazeta, jurnallar tarkibidan izlash imkoniga ega bo'ladi.

O'zbek xalq maqollari korpusining qidiruv tizmidan farqli o'laroq rus tili milliy korpusida *qidiruv oynasi* murakkab tuzilishga ega. Unda qidiruv oynalari bir qancha bo'lib, har biri alohida topshiriqlarni bajarishga ixtisoslashgan. Masalan, “Слово” –so‘z qidirish oynasida foydalanuvchiga kerakli ixtiyoriy so‘z yoziladi. Uning yonida joylashgan oyna orqali *слово* qanday qidiruv oynasi ekanligi to'g'risida ma'lumot beriladi. belgisi esa klaviatura vazifasini bajaradi. *Грамматический признаки* oynasi so‘zning Grammatik shakllarini qidirishga mo'ljallangan. tugmasi orqali tanlash imkoniyati ham yuklangan. *Синтаксический признаки*–sintaktik belgilar oynasi so‘zshaklni sintaktik belgilar asosida qidirishga mo'ljallangan. Har bir kategoriya bo'yicha alohida oynachalar ochiladi va foydalanuvchi o'ziga kerakli belgini ko'rsatgach, *ok*

tugmasi bosiladi; so‘ng interfeysdagi *ускать* tugmasi ishga tushiriladi. Interfeysda natija ko‘rinadi.

Badiiy asarlar qismida alohida oyna ochilib, unda mavjud badiiy asarlar rasmlari bilan ko‘rsatiladi(2-rasm).

Keyingi qadam siz tanlangan badiiy asar tarkibidagi maqollarning yuzaga chiqishi bo‘ladi.

Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari tanlansa, unda mavjud 10 ta maqol tartib bilan oynada aks etadi:

Uyqu – umrning tanobi (13-b.).

Sanamasdan sakkiz dema (21-b.).

Suv bo‘lmasa tayammum (23-b.),

“Kambag‘al – xudoyimning suygan bandasi” (35-b.),

Echkiga o‘lim, qassobga yog‘ (113-b.),

Kichkina mitti, xon xo‘jani yiqitd .(115-b.),

Tuya ko‘rdingmi? Yo‘q! (138-b.)

Ertaning g‘amini eshak yeydi. (148-b.)

Pes pes bilan... qorong‘uda! (214-b.)

Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning o‘g‘li gapirsin (258-b.)

Yotib qolguncha otib qol (268-b.).

Yoki G‘afur G‘ulom hikoyalari tanlansa, unda mavjud maqollar oynada aks etadi:

O‘tgan ishdan tush yaxshi (Ko‘ngilsizning “qilig‘i”).

Osmon uzoq, yer qattiq. (Qizaloq), *Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni afzal*(Arvohlar).

Echkining o‘z oyog‘dan qo‘yning ham o‘z oyog‘idan osadilar(Chorbozorchi)

Bor boricha, yo‘q holicha, O‘tgan ishdan tush yaxshi (Soyalar)

O‘rishini ko‘rib –bo‘zini ol, dadasini ko‘rib – qizini ol. (Bo‘ydoq).

Yomon otga yol bitar (Cho‘tir xotinning tolei)

Hovli olma, qo‘shni ol (G‘azna)

Jo‘jani kuzda sanaydilar (Eri bilan bas boylashgan xotin)
Turib yeganga turumtog‘ chidamas (Mening o‘g‘rigina bolam)
Birovning zog‘orasidan o‘zimning shulonim yaxshi (Shoirlik
nosqovog‘idan bir otim)

O‘ynashmagil arbob bilan arbob urar har bob bilan (“O‘ynashmagil arbob
bilan”)

Gazeta, jurnal, maqola qismidan ham xuddi shunday qidiruv tizimi orqali
o‘zingizga kerakli maqollarni olishingiz mumkin.

Rus tili milliy korpusidan esa *sintaktik, gazeta, parallel, sheva, adabiy, multimediya, multipark, tarixiy, og‘zaki hamda ta‘limiy korpuslar* o‘rin egallagan.

Multimediya oynasi maqollarni audio formatda eshitishni ta‘minlaydi. Bu oyna ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun ham qulaylik yaratish maqsadida amalga oshirilgan. Masalan, *qo‘y leksemasi* ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollari:

Barakali qo‘ychining so‘ygan Chumchug‘i ham qo‘y bo‘lar,

Bedov boylovda semirar, Qo‘y-qo‘zi yaylovda.

Bir qo‘y ketidan ming qo‘y to‘yadi.

Bir qo‘yga pichoq, Ikki qo‘yga tayoq.

Boyning tuyachisi bo‘lsang quv bo‘lasan, Qo‘ychisi bo‘lsang qul bo‘lasan.

Egachilik qizga to‘y qayda, Echkili qo‘yga suv qayda.

M.J.Sharipova oynasidan muallif haqida ma‘lumot, uning ilmiy faoliyati, matbuotda chop etilgan maqolalari va qiziqishlari o‘rin egallagan. Interfeysning markazida korpus haqida qisqacha ma‘lumot keltirib o‘tilgan.

Bosh sahifaning o‘ng tomonida jahon korpuslari linklari berilgan. Ular asosida rus milliy korpusi *ruscorpora.ru*, ingliz milliy korpusi *english-corpora.org*, tojik milliy korpusi *cit.tj* hamda qozoq milliy korpuslari *Kazkorpus.kz* veb-manzili yuklangan. Foydalanuvchi yondosh korpuslarga, ulardagi ma‘lumotlar bazasiga ehtiyoj sezganda, ushbu linklar orqali istagan korpusga kirish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan.


Hozirgi globallashuv jadal kechayotgan bir davrda o'zbek xalqi o'z an'analari, urf-odatlarini, milliylik, milliy tilini saqlab qolish maqsadida keng miqyosda ta'limiy ishlar olib borishni yo'lga qo'ydi. Bu yo'ldagi bir qadam sifatida tilshunoslik sohasiga mansub korpus lingvistikasi fani rivojini ko'rsatish mumkin. Korpus lingvistikasida korpusning alohida ko'rinishi – ta'limiy korpusning mavjudligi [4] ham ishimizni keng miqyosda o'rganish zaruratini oshiradi. Zero, tilimiz go'zalligini butun dunyoga ko'rsatadigan, o'zbek tilining internet tiliga aylanishi hamda o'zbek korpus lingvistikasi rivoji uchun har birimiz birdek mas'ulmiz.

1-rasm

O'zbek xalq maqollari korpusi interfeysi ko'rinishi



2-rasm Badiiy asarlar qismi



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Недошивина Е.В. Программа для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Работа с системой DDC. // Языковая инженерия: в поиске смыслов/ (электронный ресурс).

Ш.Хамраева.Таълимда корпусдан фойдаланиш. Til adabiyot ta'limi. 2017-yil. 9-son.49-bet.

2. Ш.Хамраева.Корпус таълим воситаси сифатида. 43-бет.

3. www.ruscorpora.ru/Что такое корпус? Электрон ресурс.

T.C. KARABÜK ÜNİVERSİTESİ
ÖZBEKİSTANDEVLETSANATVEMEDENİYETENSTİTÜSÜ
FİLOLOJİ VEKÜLTÜRARAŞTIRMALARI
KARABÜK– 2020

DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA “QO‘Y” LUG‘AVIY
MA‘NOVIY GURUHIGA
OID QARASHLAR
“DİVAN-İLÜGAT’İTTÜRK” ESERİNDE ‘KOYUN’ LEKSİK-
SEMANTİKGRUBUNA
AİTFİKİRLER

Tosheva Dildora,

Buxorodavlatuniversiteti o‘qituvchisi

Sharipova Maftuna,

BuxorodavlatuniversitetiIlbosqichmagistranti.

Okt. DildoraTAŞEVA,

Yüksek Lisans Öğrencisi Meftuna ŞARİPOVA,

Buhara Devlet Üniversitesi

Özet. Makalede “Divan-ILügat’it Türk” eserindeki “koyun” leksik-semantik grubuna ait birimlere lealınmıştır. Koyun hayvanı ile ilgili kavramlar analized ilmiştir.

Anahtar kelimeler: atasözü, leksik-semantik grub, derecelenme, koyun.

Annotation. The article deals with a number of unities concerning to lingvistic an spiritual groups of the word “sheep” of the “Devonu lug‘otit turk” work. The processes related to the word“sheep” animal are descriled and analyzed.

Key words: proverb, lexical spiritual group, graduation, livestock, sheep. (240-242)